2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 79 (1140), 2024-yil 25-aprel, payshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Yangi O‘zbekiston ruhi

DAVLAT BOSHQARUVIDAGI ISLOHOTLAR yuksalishlarning bosh mezoniga aylanmoqda

Keyingi o‘n yillikda dunyo tahlikali rivojlanish pallasiga kirib bormoqda. Xom-ashyo, texnologiya, professional ishchi kuchi va kapital bozorlarida, tovarlar eksporti va transport koridorlarida, xalqaro kooperatsiya va integratsiya zanjirida misli ko‘rilmagan siyosiy taranglik kuzatilmoqda.

Jahon siyosati va iqtisodiyotining global ishtirokchilari xalqaro munosabatlarning an’anaviy uslub va tamoyillaridan chetlanib, milliy manfaatlarini ilgari surishning murosasiz yo‘liga o‘tib olmoqda. Bu esa ilg‘or iqtisodiy taraqqiyot trayektoriyasiga chiqib olgan O‘zbekistondek dinamik rivojlanayotgan davlatlardan global raqobatda samarali ishtirok etish va o‘ziga munosib o‘ringa ega bo‘lishning eng zamonaviy va kreativ drayverlarini izlab topishni talab etyapti.

Yangi O‘zbekiston davlat boshqaruvi tizimi mana shunday strategik noaniqlik va global voqelik sharoitida milliy taraqqiyotning 2030-yilgacha bo‘lgan davrni qamrab olgan maqsad va marralarni ishlab chiqib, tobora ildamlamoqda.

Dunyoda kechayotgan chuqur transformatsiya jarayoni har bir mamlakatdan davlat siyosati va boshqaruvida samarali islohotlar o‘tkazish, raqobatbardosh va izchil boshqaruv instituti sifatida faoliyat yuritish, shuningdek, davlat xizmatchilarining kasbiga sadoqatli, zamonaviy professional bilim va malakaga ega bo‘lishini hamda faoliyatida yuqori natijaga erishishini taqozo qilmoqda.

O‘zbekistondagi davlat siyosatining pirovard maqsadi islohotlarning har bir mahalla, xonadon va fuqaro hayotida, xalq farovonligi va orzu-umidlari ushalishida aks etishiga qaratilgan. Buning natijasida xalq davlatdan rozi bo‘ladi va uning siyosatini qo‘llab-quvvatlaydi.

Davomi 3-betda

UYG‘OQ FIKR

FAOL HARAKAT VA DAXLDORLIK HISSI

Bugun jamiyatimizga ma’rifatli, barkamol, kelajakni ishonch bilan topshirish mumkin bo‘lgan, o‘z zakosi ila dunyoni boshqarish salohiyatiga ega yoshlar kerak. Shunday ekan, o‘zini mamlakat taraqqiyotiga daxldor deb bilgan har bir kishi kuchli mafkuraga suyanib ish ko‘rishi davr talabidir. Insonning yashayotgani, borliqda mavjudligi uning ruhidan, harakatidan, ong-u tafakkuridan, amallaridan anglanadi. Mafkura esa shu ruhni tiriklik suvi bilan sug‘organ holda insoniylik mohiyatini belgilab beradi.

Xalqimiz uzoq yillar milliy mafkura qudratini anglamay yashagan paytlar ham bo‘ldi. Asl birdamlik, barhayot kuch va salohiyatni namoyon etuvchi milliy g‘oyalarimiz faqat balandparvoz shiorlar-u hayqiriqlar soyasiga berkindi. Ammo xalq irodasi bukilmadi. Bugun milliy yakdillik, birdamlik bilan yangi O‘zbekistonni qurayotgan xalqning tafakkuri ham, mafkurasi ham yangicha.

Dunyo turli mafkuraviy tahdidlar, axborot xurujlari girdobiga tushib qolayotgan ayni paytda yurtimizning ochiq, pragmatik, konstruktiv ruhdagi keng ko‘lamli ichki va tashqi siyosati mavjud murakkab muammolarni ijobiy hal qilish, qo‘shni va uzoq xorij mamlakatlar o‘rtasidagi xavfsiz savdo-sotiq, bordi-keldi masalalarini diplomatik yechishda samarali rol o‘ynamoqda.

Prezidentimizning Tojikistonga davlat tashrifi nafaqat shu mamlakat, balki Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari bilan do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik, strategik hamkorlik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirishning amaldagi ifodasi bo‘ldi. Fan, ta’lim, madaniyat sohasidagi integratsiyalashuv, mintaqaviy, xalqaro munosabatlardagi o‘zaro iqtisodiy sheriklik masalalari bugun yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Bu esa xalqlarimizda shakllangan birdamlik ruhi mustahkamlanishiga, milliy san’at targ‘iboti ravnaqiga xizmat qilishi shubhasiz.

Hayotning o‘zi O‘zbekiston tanlagan yo‘lning to‘g‘riligini ko‘rsatmoqda. Yangi jamiyatning taqdiri, millatning kelajagi yurtimizda istiqomat qilayotgan 130 dan ortiq millat va elat vakillarining ahil-inoqligiga bog‘liq, bir maqsad yo‘lida “Shu aziz Vatan — barchamizniki”, deya fidoyilik qilish mamlakatda yuritilayotgan siyosatning xalqchil va adolatli ekanidan dalolat.

O‘zbekiston o‘z oldiga eng yuksak, o‘ta mas’uliyatli vazifalarni qo‘yib, ularni bajarish faqat o‘zimizning qo‘limizda ekani, hech kim tashqaridan kelib muammolarimizni hal etib bermasligi ham bugun kundek ravshan. Buni teranroq his qilish esa odamlarda ijtimoiy faollik, mamlakat taqdiriga daxldorlik tuyg‘usini kuchaytiradi.

Milliy o‘zlikni anglash jarayoni osonlikcha kechgani yo‘q. Bu jarayon eski tuzum tamomila vayron bo‘lgan, yangi, yosh jamiyat esa endi-endi oyoqqa turayotgan, uning ijtimoiy munosabatlari asta-sekin qaror topayotgan bir paytga to‘g‘ri keldi.

O‘tgan hafta mushtarak tarixiy meros, ma’naviy qadriyat va an’analarimizni asrab-avaylash va targ‘ib qilish bo‘yicha samarali faoliyati, shuningdek, birodar xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini mustahkamlashga qo‘shgan munosib hissasi uchun O‘zbekiston va tojikistonlik bir guruh madaniyat va san’at arboblari qatorida menga ham faxriy unvon berildi. O‘sha lahzalarda yuqoridagi mulohazalar xayolimdan o‘tdi.

Men ham millionlab yurtdoshlarim qatori o‘z farzandlarim, nabiralarim yanada farovon hayot kechirishi, tinch va osoyishta yashashini istayman hamda shu maqsad yo‘lida bor kuchimni safarbar etishga tayyorman. Bag‘rikeng, mehr-oqibatli, sabr-qanoatli xalqimizning bugungi shiddati, azmu qarori, yanada yorug‘, tarovatli kunlarga ishonchi susaymasin, bunyodkorlik va yaratuvchanlik ishlarimizga Yaratganning o‘zi madadkor bo‘lsin.

Munojat YO‘LCHIYEVA,
O‘zbekiston Qahramoni,
O‘zbekiston xalq artisti,
Tojikiston xalq hofizi

KUN NAFASI

XORIJIY G‘O‘ZA NAVLARI

PAXTACHILIKDA YUQORI MARRALARGA ERISHISHDA QO‘L KELADI

“Dehqonki, dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo‘lini ochar... Olam ma’murlig‘i alardin, olam ahli masrurlig‘i alardin. Har qayon qilsalar harakat, elga ham qut yetkurur, ham barakat”.
Hazrat Alisher Navoiy aytganidek, bugun ham dehqonchilikda dona sochilayotgan, rizq yo‘li ochilayotgan, elga qut-barakat yog‘ayotgan palla. O‘z vaqtida ekilgan sifatli urug‘ bunga imkoniyat yaratadi. Ana shunday xabarlardan biri Surxondaryodan keldi. Viloyat paxtakorlari joriy yilda rejadagi 72 ming 270 gektar maydonga to‘liq chigit qadab, ayni paytda g‘o‘za unib chiqqan dalalarga ishlov beryapti. Qolgan viloyatlarda ham tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda paxta ekish ishlarini nihoyasiga yetkazyapti.

“O‘zagroinspeksiya” axborot xizmatining xabar berishicha, bu yilgi hosil uchun 1 million gektarda chigit ekish rejalashtirilgan. Buning uchun 50 ming tonna urug‘lik chigit talab etiladi. G‘o‘zaning iqlim sharoitiga mos 22 ta ertapishar, 3 ta o‘rtapishar, 4 ta ingichka tolali hamda 24 istiqbolli va yangi navini ekish mo‘ljallangan.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida paxta va g‘alla hosildorligini oshirish, jumladan, paxta hosilini o‘rtacha 45-50 sentnerga, g‘alla bo‘yicha 80-100 sentnerga yetkazish maqsad qilingan. Buning uchun xorijdan hosildorligi yuqori urug‘lik olib kirishga ruxsat berish, paxtada 5 ta va g‘allada 8 ta yangi tezpishar, serhosil navni tanlash va joylashtirish, tanlab olingan navlar maydonini har yili kamida 10 foiz kengaytirib borish, zamonaviy resurs tejamkor texnologiyalarni paxta va g‘alla maydonlarining 40-50 foizida joriy etish vazifasi qo‘yilgan.

— O‘tgan yili sohada ishlab chiqarish 4,1 foiz o‘sib, 426 trillion so‘mni tashkil qildi, — deydi qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor Odiljon Ibrohimov. — Eksport esa qariyb 2 milliard dollarga yetdi. Ilk bor 3 million 700 ming tonna paxta, 8 million tonna g‘alla hosili olindi. Bunday raqamlar yaqin tariximizda hech qachon bo‘lmagan.

Prezidentimiz raisligida shu yil 12-fevral kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida yer va suv resurslari cheklangan sharoitda qishloq xo‘jaligi mas’ullari joriy yilda mutlaqo yangicha ishlashi zarurligi ta’kidlandi.

Masalan, yurtimizda bir gektar maydondan olinadigan o‘rtacha hosil ilg‘or mamlakatlardagiga qaraganda kam. Lekin o‘g‘it ham, yoqilg‘i ham, suv ham ikki karra ko‘p ishlatiladi.

Davomi 4-betda

Dolzarb mavzu

MILLIY KONTENT nima uchun kerak?

YOXUD MAQSAD — HUDUDLARNI EMAS, ONGNI EGALLASH

Yaqinda o‘tgan asrning 40-yillari oxirida suratga olingan filmdan lavha ko‘rib qoldim. Unda bir dasturxon atrofida millatimiz vakillari, asosiy qismi qizlar bo‘lgan davrada hamma pivo ichib o‘tiribdi. Hattoki qiz bitta pivoni qo‘liga olib, ikkinchisini otasiga uzatyapti. Bu lavha diyorimizdagi xuddi odatdagi hayotiy voqealar singari aks ettirilgan.

Aslida, bu holni o‘sha davrning majburiy singdirilgan mafkurasi, deb qabul qilish mumkin. Ammo ijtimoiy tarmoqlar orqali bugun o‘zbek auditoriyasiga berilayotgan manzarani nima deb atash mumkinligini ham bilmaysan kishi.

Birgina “Tik-tok” bugun deyarli aksariyat foydalanuvchilarning sevimli tarmog‘iga aylanib ulgurdi. Unda berilayotgan lavhalar (eng qizig‘i, o‘zbeklar tomonidan o‘zbek tilida ijro etiladigan) tarmoq iste’molchilarining hammasini o‘ziga rom etib bo‘ldi. Afsuski, bizga yot mafkuralar turli usullarda yopirilib kirib kelmoqda, desak mubolag‘a bo‘lmaydi...

Davomi 5-betda

Yulduzlar mangu yonadi

Mamlakatimiz bo‘ylab millionlab ko‘chatlar ekilayotir. Ammo ularning hammasi ham risoladagidek parvarish qilinmayapti. Shu ma’noda inson omilini kamaytiradigan suv tejovchi texnologiyalar bu borada yaxshi samara beradi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 25-aprel, 79-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Taraddud

O‘ZBEK RAQS SAN’ATI QALBLARNI ZABT ETMOQDA

Xiva “Lazgi” xalqaro festivaliga tayyor

Bugun qadim Xorazmning afsonaviy Xiva shahriyu Ichan qal’adagi ko‘hna ark maydoni katta bir tadbir tadorigi ila fayziyob va shukuhli. “Lazgi” II xalqaro festivali oldidan Madaniyat vazirligi, Xorazm viloyat hokimligi, yurtimizning tajribali rejissyor, bastakor, raqqosalaridan tashqari bir qator boshqarma va idoralar xodimlari ham belni mahkam bog‘lagan.

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 28-sentyabrdagi “Lazgi” xalqaro raqs festivalini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorida tadbir munosabati bilan Ichan qal’a majmuasi hududida raqs san’atiga oid ko‘rgazma, milliy soz va liboslar, hunarmandlik buyumlari, tasviriy va amaliy san’at asarlari, haykaltaroshlik namunalari, badiiy va hujjatli filmlar, audio va videodisklar, kitob, albom, fotosuratlar namoyishi hamda ularning savdosini tashkil etish belgilab qo‘yilgan. Ayni maqsadlar uchun tadbirlar o‘tadigan hududlarni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish, sahna maydonlari va zallarning talab darajasida tayyorlanishiga alohida e’tibor berilyapti.

Endilikda har ikki yilda o‘tkazilishi an’anaga aylangan mazkur festival ham tobora takomillashib, yildan yilga sayqal topaveradi. Chunki har gal yangi-yangi g‘oyalar tug‘iladi, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar tuzatib boriladi. Binobarin, bu yirik xalqaro tadbir Xorazm lazgi raqsining asriy an’analarini saqlash va rivojlantirish, shu orqali xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik, birodarlik rishtalarini mustahkamlash, xalqaro miqyosda ijodiy hamkorlik ko‘lami va madaniy aloqalarni yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Ilk marotaba 2022-yilda bo‘lib o‘tgan “Lazgi” xalqaro festivalida ko‘plab davlatlardan 175 dan ziyod raqs san’ati ustasi, professional raqs jamoalari, san’atshunos olimlar, madaniyat sohasi namoyandalari ishtirok etgan edi. YUNESKO shafeligida o‘tkazilayotgan, 27-aprel kuni tantanali ochilishi ko‘zda tutilgan II festivalda bugunga qadar Fransiya, Tojikiston, Turkmaniston, Qozog‘iston, Belarus, Rossiya, Turkiya, Qirg‘iziston, Serbiya, Braziliya, Pokiston, Italiya, Janubiy Koreya, Indoneziya, Misr, Hindiston, Ozarbayjon, Eron kabi ko‘plab davlatlardan badiiy jamoalar ishtirok etish istagini bildirdi. Tadbirning badiiy qismida Misr, Qozog‘iston, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Tojikiston madaniyat vazirlari hamda AYSESKO bosh direktori faxriy mehmon sifatida ishtirok etishi kutilmoqda. Germaniya, Janubiy Koreya, O‘zbekiston, AQSH, Qozog‘iston kabi davlatlardan esa hakamlikka nomzodlik uchun arizalar kelib tushgan.

Xalqaro festivalda O‘zbekiston nomidan ishtirok etish istagini bildirgan jamoa va ishtirokchilarni saralash tadbiri joriy yilning 13-aprel kuni o‘tkazildi. Natijada 3 ta ashula va raqs ansambli hamda 3 nafar yakkaxon ijrochi ishtirok etishi belgilandi.

Shuningdek, Madaniyat vazirligi tomonidan tashkil etiladigan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada qatnashish uchun 50 dan ziyod mahalliy, 30 dan ziyod xorijiy olim va soha vakili ishtirok etish istagini bildirgani ma’lum qilindi. Festivallar nafaqat madaniy-gumanitar aloqalarni, balki ilmiy-amaliy hamkorlikni mustahkamlayotgani bilan ham ahamiyatli.

— Bugun “Lazgi” raqsiga butun dunyo nihoyatda qiziqish bildirib turibdi, bu bizning ilmiy-amaliy ishlarimiz rivojlanishiga ham sabab bo‘ladi, — deydi filologiya fanlari doktori Hulkar Hamroyeva. — Chunonchi, “Lazgi” YUNESKO ro‘yxatiga kiritilar ekan, uning tarixini ilmiy jihatdan asoslab berish kerak bo‘lgan va bunda, birinchi navbatda, “Avesto”ga tayanilgan. O‘tgan yili akademiyamizga kelgan germaniyalik Tatyana Tim xonim “Lazgi”ning xalqaro turizmdagi o‘rni” mavzusida ilmiy tadqiqot qilyapti. Tim xonimning “Lazgi”ga oid 40 ta savol tuzib kelganining o‘zi shu sohani mukammal o‘rganganidan dalolatdir. Javoharlal Neru universiteti professori, doktor Axlak Axan ham akademiyamizda bo‘lib, “Lazgi” haqidagi 2 ta kitobni urdu tiliga tarjima qilishga kirishdi. Davlatimiz rahbarining ta’biri bilan aytganda, ilmga asoslanmagan sohaning kelajagi yo‘q. Shuning uchun dunyo bo‘yicha “Lazgi” haqida ilmiy tadqiqot qilayotgan olimlar bilan hamkorlikka jiddiy e’tibor beryapmiz. Ikki yil avval bo‘lib o‘tgan festivaldan so‘ng hamkorlarimiz ko‘paydi. Hozirgacha 10 ga yaqin davlatda “Lazgi” raqsi haqidagi monografiyalar bosildi. Indoneziyada, Tailandda xalqaro konferensiyalar o‘tkazdik. Nasib qilsa, akademiyamiz huzurida ushbu raqsning 9 ta turini ilmiy-amaliy tadqiq qilish maqsadida “Lazgi” ilmiy-amaliy markazini tashkil etamiz.

Darhaqiqat, ayni paytda festivaldan festivalgacha nimalarga erishildi, degan savolga javoban aytsak, “Lazgi” festivali misolida ilmiy natijalar bor. O‘zbekistonda G.Matyoqubova, Sh.Toxtasimov, H.Hamroyevaning “Xorazm “Lazgi” raqsining tarixi” monografiyasi, Indoneziyada ingliz va indonez tillarida “Lazgi” — muhabbat va qalb raqsi” kitobi, Misrda ingliz va arab tillarida “Lazgi” — Xorazm san’atining durdonasi”, Hindistonda ingliz va hind tillarida “Lazgi” — muhabbat va qalb raqsi” risolalari katta adadda chop etildi. Ilmiy izlanishlarning natijalari Turkiya, Hindiston, Misr, Tailand, Indoneziya, Qozog‘iston, Rossiyada o‘tgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda olimlar hukmiga havola qilindi.

Chet el olimlarining qarashlarini, qiziqishlarini yanada oshirishda festival doirasida namoyish etilishi rejalashtirilgan o‘zbek filmlarining ham ahamiyati katta. Chunonchi, Kinematografiya agentligi buyurtmasi asosida yaratilgan “O‘zbek raqsi sehri” filmida raqs san’atimiz xorijiy davlatlarda tarannum etilayotgani aks etsa, “Raqs jozibasi” filmi o‘zbek raqs san’ati, uning maktablari haqida hikoya qiladi.

Umuman olganda, “Lazgi” xalqaro festivaliga nafaqat xorazmliklar, balki butun o‘zbek xalqi ruhan, qalban tayyorlanyapti. Unga hammamiz mezbonmiz, desak xato bo‘lmaydi. YUNESKO tomonidan nomoddiy boylik sifatida e’tirof etilgan “Lazgi” o‘zbekman, deya ko‘ksiga urgan barcha-barchaning milliy mulki.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

E’tirof

Qachondir ikki xalq yetakchilari qo‘lidan yuksak mukofotni qabul qilib olaman, deb o‘ylamagan edim. Bunday oliy unvonning berilishi men uchun unutilmas voqea bo‘lib, ikki xalq uchun yanada tinmay mehnat qilishga va ishonchni oqlashga undaydi. Bu esa yuksak mas’uliyat. Tojikiston xalqiga qanday xizmat qilgan bo‘lsam, O‘zbekiston xalqiga ham shunday xizmat qilishga bel bog‘layman.

IKKI XALQ OLDIDA TA’ZIMDAMAN

To‘lqin TOJIBOYEV,
Tojikiston va O‘zbekiston xalq artisti, Bobojon G‘afurov tumani “Shashmaqom” ansambli rahbari

Tojikiston va O‘zbekiston rahbarlarining xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini yanada mustahkamlash borasidagi jasoratlari tahsinga loyiq va bu biz uchun bebaho ne’mat, desam xato bo‘lmaydi. Prezidentlarimizning bunday do‘stona tashabbuslari hammaga ibrat. Et bilan tirnoqni ajratib bo‘lmaganidek, bizni ham bir-birimizdan ajratish imkonsiz.

O‘zbek va tojik — dili va maslagi bir xalqlar. 6-7 yilning narisidagi vaziyat qanday edi-yu, hozir qanaqa? Ilohim, bu do‘stligimizga hech qachon ko‘z tegmasin. Ikki xalqning xursandligini ko‘rib, Yaratganga cheksiz shukronalar aytaman. Men o‘zimni tojik va o‘zbek eli farzandi deb bilaman. Maqom san’atimizning yuksak ustunlaridan biri ustoz Jo‘rabek Nabiyev bilan doimo maslahatlashib turaman. Ustoz ham meni mukofot bilan qutlar ekan, mas’uliyatni yanada his etib harakat qilishimiz zarurligini ta’kidladi.

Qo‘shiqlarimning asosi Vatan va do‘stlik mavzularidan iborat. Ayni paytda So‘g‘d viloyatining Bobojon Fafurov tumanidagi maqomchilar ansambliga rahbarlik qilib kelaman. Niyatim — kelajakda xalqlarimizning maqomga qiziqishini yanada yuksaltirish. Ayniqsa, yoshlar o‘rtasida maqom san’atimizni yanada keng targ‘ib etish. Bugun yoshlarimizning maqomga ishtiyoqi oshib borayotgani quvonarli hol. Albatta, bu yo‘lda ham bor mahoratimni ishga solaman. Shuningdek, nasib etsa, O‘zbekiston televideniyesi orqali chiqish qilish niyatidamiz.

Fursatdan foydalanib, Tojikiston hamda O‘zbekiston rahbarlariga cheksiz hurmatimni izhor etmoqchiman. Boshlangan xayrli ishlarimiz va xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik abadiy bo‘lsin!

Yashil makon

BARCHAMIZDAN BOG‘ QOLSIN

Yashillik ham tabiatni, ham insonni sog‘lomlashtiradi. Shu sababdan ota-bobolarimiz umri davomida ko‘proq ko‘chat ekish, bog‘ yaratishga harakat qilganlarki, bu milliy an’anaga aylanib qolgan. Chaqaloq tug‘ilganda nihol qadash udumi ham aynan shu an’ananing bir qismi, desak rost bo‘ladi.

Hakim Yo‘ldoshev olgan suratlar.

“Kelgusida bu “hujjat”larning barchasiga alohida-alohida QR-kod ajratiladi. Oradan yillar o‘tib, hozir ko‘chat ekkan hamkasblarimiz farzandlarini yoki nabiralarini olib kelib, QR-kodni skanerlash orqali ularga ushbu daraxtlarning yoshini va kim ekkanini ko‘rsatishi mumkin bo‘ladi.”

Tabiatni yashartirishga harakat bugungi kunda ham xalqimizning ezgu odati. Bunga davlatimiz miqyosida e’tibor qaratilgani esa unga yangi qiyofa baxsh etadi. “Yashil makon” umummilliy loyihasi shu e’tiborning ayni isboti, desak adashmaymiz.

Toshkent shahridan Nurafshonga yo‘l olarkansiz, shaharga kiraverishda yangi bog‘ yaratilayotgani, ular soni yana bittaga ko‘payayotgani e’tiborni tortadi. Mazkur bog‘ O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi tomonidan barpo etilmoqda.

Yangi bog‘ Nurafshon shahridagi Qumariq mahallasida joylashgan. Maydoni 5,5 gektardan ortiq. Bog‘ga salkam 6 ming tup ko‘chat ekish mo‘ljallangan.

— Hudud iqlimini inobatga olib, yasin, katalpa, safora, zarang hamda terak ko‘chatlari tanlandi, — deydi o‘rmonshunos Ma’murjon Domlajonov. — Bog‘ bir necha hududga ajratilgan bo‘lib, daraxtlarning kelgusidagi bo‘yi va hajmi inobatga olinib ko‘chatlar ekilmoqda. Bog‘ atrofi, asosan, terak ko‘chati bilan o‘raladi. Sababi, terak tezroq o‘sib, salqin beradi. O‘z navbatida, bog‘ga salobat ham bag‘ishlaydi.

Bog‘ to‘liq tomchilatish usuli orqali sug‘oriladi. Bu yerda oqar suv muammo emas, lekin nega aynan suv tejovchi texnologiyalar o‘rnatilayotgani qiziq tuyuldi.

— To‘g‘ri, bu hududda suv nisbatan serob, ammo bugungi zamon mavjud suvni tejab ishlatishni talab qilmoqda, — deydi federatsiyaning Toshkent viloyati kengashi raisi o‘rinbosari O‘tkir Rashidov.

Suv tejovchi texnologiyalar orqali sug‘orish an’anaviy sug‘orishga qaraganda ancha samarali. Bu usul orqali suvni 60 foizgacha tejash mumkin. Shu bilan birga, suv tejovchi texnologiyalar mehnat resursini ham karrasiga qisqartiradi. Masalan, maydoni 5,5 gektar bo‘lgan ushbu bog‘ni sug‘orishga bir kishining mehnati yetarli. O‘sha bir kishi ham kerakli tugmalarni vaqtida bosib tursa bas, tizim o‘zi avtomatik ishlayveradi.

Mamlakatimiz bo‘ylab millionlab ko‘chatlar ekilayotir. Ammo ularning hammasi ham risoladagidek parvarish qilinmayapti. Shu ma’noda inson omilini kamaytiradigan suv tejovchi texnologiyalar bu borada yaxshi samara beradi. Bitta mas’ul bog‘bon biriktirilsa bo‘ldi, 10 kishining ishini o‘zi eplaydi.

Ko‘chat ekish bilan mashg‘ul ekanmiz, bir vaqt shu mahallada yashaydigan 3-4 yurtdoshimiz belkurak ko‘tarib paydo bo‘ldi. Aytishlaricha, mahallada yangi bog‘ yaratilayotganidan xabar topib, hasharga kelishibdi. Shunga aytishsa kerak-da, yaxshi ish yaxshilarni chorlaydi, deb.

— Maqsadimiz minglab ko‘chat ekish, so‘ngra xabar olmay g‘oyib bo‘lish emas, bu yerda el havas qiladigan bog‘ barpo etib, hatto ko‘chat yetishtiradigan manzilga aylantirish, — deydi Kasaba uyushmalari federatsiyasi matbuot kotibi Muhabbat O‘rmonbekova. — Bu bo‘yicha barcha reja va loyihalar ishlab chiqilgan. Yana bir jihatni ta’kidlash kerakki, hozir ekilayotgan hamma ko‘chatning o‘z “hujjat”i bor. Ya’ni ularning qanday ko‘chat ekani, kim ekkani yozib qo‘yilgan. Kelgusida bu “hujjat”larning barchasiga alohida-alohida QR-kod ajratiladi. Oradan yillar o‘tib, hozir ko‘chat ekkan hamkasblarimiz farzandlarini yoki nabiralarini olib kelib, QR-kodni skanerlash orqali ularga ushbu daraxtlarning yoshini va kim ekkanini ko‘rsatishi mumkin bo‘ladi.

Kasbi va mavqeidan qat’i nazar, insonning tabiat uchun qilgan har qanday yaxshiligi tahsinga sazovor. Istaymizki, bu tashabbus yanada kengaysin, tabiatga mehribon yurtdoshlarimiz safi ortaversin — zero, rohatini kelajak avlodlar ko‘radi, duolar bilan eslaydi. Shu bois, O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi xuddi shunday loyihalarni respublikamizning boshqa hududlarida ham davom ettirmoqda.

Jonibek ALIJONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Yangi O‘zbekiston ruhi

DAVLAT BOSHQARUVIDAGI ISLOHOTLAR yuksalishlarning bosh mezoniga aylanmoqda

Adham BEKMURODOV,
Davlat boshqaruvi akademiyasi rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Hozir har bir davlat organi, har bir davlat amaldorining faoliyati samaradorligi va natijadorligi aholining roziligi bilan o‘lchanadi hamda bu mezon to‘laligicha davlat siyosati va boshqaruvi tizimiga singdirilmoqda. Sohibqiron Amir Temurning “Kuch — adolatdadir” tamoyiliga hamohang yuritilayotgan bunday siyosat asrlar osha shakllangan davlatchilik ilmi va tajribasiga tayanayotgani shubhasiz.

Bunday siyosat yuritish, bir tomondan, samarali davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimini taqozo etsa, ikkinchi tomondan, sohadagi islohotlar kasbiga sadoqatli va professional davlat xizmatchilarini tayyorlash, salohiyatini muntazam oshirib borishni kun tartibidagi muhim masala sifatida ko‘tarmoqda.

Samarali davlat konsepsiyasi

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayoni tobora chuqurlashib borishi, zamonaviy texnologiya, tovar va xomashyo hamda moliyaviy resurslar bozorida raqobat yanada keskinlashuvi, tabiiyki, davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, xususan, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi masalasida samarali islohotlarni talab etadi.

Samarali davlat konsepsiyasi iqtisodchilar orasida uzoq davrdan buyon munozara va muhokama obyekti bo‘lib kelyapti. Mazkur konsepsiya oxirgi 30 yildan buyon Jahon iqtisodiy forumi va boshqa xalqaro tashkilotlarning bosh masalasiga aylangan. Forum konsepsiyasiga ko‘ra, davlatlar yoki kompaniyalarning global raqobatbardoshligi ularning ishlab chiqarish omillari (xom-ashyo, ishchi kuchi, kapital yoki texnologiya) bilan qay darajada ta’minlangani bilan emas, balki milliy eksportyorlarning global bozorlarda raqobatbardoshligini ta’minlash maqsadida davlatlar qanday samarali institut va instrumentlar yaratayotgani bilan baholanadi.

Bu ko‘rsatkich esa Jahon iqtisodiy forumi har yili Global raqobatbardoshlik bo‘yicha e’lon qiladigan ma’ruzada qator indikatorlar orqali hisoblanadigan global raqobatbardoshlik indeksi sifatida baholanadi. Mazkur indeks mamlakatlarning iqtisodiy o‘sishi va fuqarolari farovonligini ta’minlay olish salohiyatini ko‘rsatibgina qolmay, birinchi navbatda, har bir davlatning iqtisodiy siyosati samaradorligiga baho beradi.

Ilk bor 2017-yildan boshlab ilgari surilgan va keng yuritilayotgan ochiqlik siyosati tufayli mamlakatimizning global siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, innovatsion va boshqa reyting hamda indekslardagi pozitsiyalari tobora mustahkamlanmoqda.

Global reyting va indekslarda yuqori natija qayd etilishi davlat iqtisodiy siyosati sifati va raqobatbardoshligi in’ikosidir. Shu o‘rinda mashhur ingliz mutafakkirining ikki yuz avval aytgan so‘zlarini eslash joiz: “Eng kuchlilar yoki eng aqllilar emas, balki o‘zgarishlarga eng tez moslasha oladiganlargina omon qoladi”. Tabiat olami to‘g‘risida aytilgan bu gaplar bugun insoniyat uchun ham to‘la mos keladi. Zero, yangi O‘zbekistonning davlat siyosati fenomeni, avvalo, dunyodagi eng muhim tahdidlarga qarshi turish, jahon bozoridagi har qanday o‘zgarishga oldindan tayyorgarlik ko‘ra olishda namoyon bo‘lmoqda.

Samarali davlat konsepsiyasi faqat iqtisodiy regulyator sifatida raqobatbardosh institut va regulyativ instrumentlar yaratish bilangina baholanmaydi. Toki davlat nafaqat iqtisodiyot, balki jamiyat hayotining barcha jabhacida ishtirok etar ekan, samarali davlat konsepsiyasi tushunchasi nihoyatda keng mohiyat va mazmunda ifodalanadi.

Yevropa qanday yo‘l tutmoqda?

Qator mamlakatlarda davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, xususan, vazirliklar, davlat regulyativ funksiyalari va davlat xizmatchilari soni qisqarishi davlat boshqaruvi, aniqrog‘i, samarali davlat tizimi shakllanishiga nechog‘liq bog‘liqligini ko‘rish mumkin.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida davlat boshqaruvi va davlat xizmatlarini ko‘rsatish sohalarida bugun quyidagi yo‘nalishlarga katta e’tibor qaratilmoqda:

birinchisi, ochiq hukumat tashabbuslari va tashqi shaffoflikni mustahkamlashga qaratilgan islohotlar, masalan, axborot erkinligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, ochiq ma’lumotlar, xaridlar bo‘yicha islohotlar va korrupsiyaga qarshi organlarni tashkil etish;

ikkinchisi, davlat xizmatchilarining soni va xarajatini qisqartirish, meritokratiyani kuchaytirish, ish faoliyatini baholashni takomillashtirish va shtatlardagi qisqartirish choralariga e’tibor qaratgan holda davlat xizmatini isloh qilish;

uchinchisi, davlat xizmatlari ko‘rsatishni yaxshilash maqsadida portallar va elektron imzo yechimlarini tashkil etish, onlayn xizmatlarni joriy etish va “yagona darcha” markazlarini rivojlantirish kabi elektron hukumat chora-tadbirlari;

to‘rtinchisi, hukumatning muvofiqlashtirish markazi salohiyatini kuchaytirish bo‘yicha islohotlar hamda idoralar/mustaqil organlarni birlashtirish;

beshinchisi, samaradorlikni boshqarish va natijaga yo‘naltirilganlikni kuchaytirish hamda samaradorlikni oshirishga qaratilgan islohotlar. Biznes sohasi va fuqarolar zimmasiga tushadigan ma’muriy yukni kamaytirish;

oltinchisi, tartibga solish ta’sirini baholash, oldingi baholash yoki manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashish kabi vositalar orqali dalillarga asoslangan boshqaruvni va yaxshiroq tartibga solishni kuchaytirish kabilar.

Yevropa Ittifoqida davlat siyosati va boshqaruvi tizimidagi transformatsion jarayonlar, xususan, ularning samaradorligini oshirish borasidagi ochiqlik, raqamlashtirish, korrupsiyaga qarshi kurash, keng aholi qatlamlari ishtiroki kabi zamonaviy yondashuvlarga O‘zbekistonda davlat boshqaruvi qonunchiligi va amaliyoti rivojida keng o‘rin berilmoqda.

O‘zimizga xos va mos milliy tajriba

Ilg‘or xorijiy tajribaga asoslangan holda davlat boshqaruvi tizimini ixcham, professional va samarali qilib shakllantirish maqsadida isloh etishning turli yo‘nalishlari mavjud.

Birinchidan, qonunlarning amaliyotga to‘g‘ridan to‘g‘ri tatbiq etilishini, barcha (davlat organlari, korxona va tashkilotlar hamda fuqarolar) birdek tushunishi va hurmat qilishini ta’minlash zarur. Jumladan, qabul qilinayotgan qonunlar va qonunosti hujjatlar ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni samarali tartibga solibgina qolmay, davlat budjetiga asossiz qo‘shimcha xarajat keltirib chiqarmasligi kerak.

Bu masala O‘zbekistonning 2017-yildan buyon yuritib kelinayotgan davlat siyosatida eng muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, ushbu yo‘nalishda hali qilinishi lozim bo‘lgan ancha ish borligi Prezidentimizning 2024-yil 19-fevraldagi “Qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini hamda norma ijodkorligi jarayoni sifatini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida ko‘rsatilgan.

Qabul qilinayotgan qonunlarimizning to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilishini ta’minlash borasida sezilarli siljish kuzatilmoqda. Qaysi sohada farmon, qaror va boshqa normativ-huquqiy hujjat ko‘p qabul qilinar ekan, avvalo, shu sohadagi qonunlarimizda davlat boshqaruvining regulyativ funksiyasi, ya’ni mexanizmi yetarli darajada ochib berilmaganini bildiradi.

To‘laqonli ishlamayotgan qonunlar yangidan yangi davlat boshqaruvi organlari tashkil qilishni taqozo etadi. Davlat boshqaruvi organlari, o‘z navbatida, davlatning qo‘shimcha regulyativ funksiyalari lozimligini isbotlashga urinadi. Davlat boshqaruvi organlari soni oshishi davlat xizmatchilari sonini ko‘paytiradi. Bularning barchasi davlat byudjeti xarajatini oshiradi. Natijada davlat boshqaruvi xarajati ortib, faoliyati sifati va samaradorligi pasayadi.

Bu mantiqiy zanjirni uzoq davom ettirish mumkin, ammo xulosa oddiy — bizga to‘g‘ridan to‘g‘ri ishlaydigan qonunlar kerak. Ular davlat boshqaruvi samaradorligini oshiradi va davlat budjeti xarajatini kamaytiradi. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, bunday davlat boshqaruvi tizimi ixcham, samarali va natijador bo‘ladi.

Ikkinchidan, davlatning iqtisodiyot, ijtimoiy soha va jamiyat hayotining boshqa jarayonini muvofiqlashtirish vakolatlari, jumladan, regulyativ funksiyalarini tobora liberallashtirib borish talab etiladi.

Ayni paytda barcha sohada ochiqlikni ta’minlash, davlatning iqtisodiyot, ijtimoiy soha va umuman, ijtimoiy hayotga aralashuvini asoslangan darajada qisqartirib borish, ijtimoiy-siyosiy hayotni demokratlashtirish, iqtisodiyotni liberallashtirish va fuqarolik jamiyati institutlarini tubdan transformatsiya qilish orqali rivojlantirish davlatimiz siyosatining eng muhim tayanchi bo‘lib qolmoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish to‘g‘risida qayg‘urar ekanmiz, avvalo, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini optimallashtirish, regulyativ funksiyalari ta’siri doirasini bosqichma-bosqich qisqartib borish lozimligiga amin bo‘lamiz. Bu borada O‘zbekistonda litsenziyalash, biznesga ruxsat berish, davlat xizmatlarini raqamli texnologiyalar orqali ko‘rsatish borasida qilinayotgan ishlarni alohida qayd etish lozim.

Bugungi kunda ma’muriy islohotlar doirasida davlat idoralarining bir-birini takrorlayotgan 500 dan ortiq funksiyasi qisqartirilmoqda, iqtisodiy faoliyatni litsenziyalashtirish va

turli ruxsatnomalar berish amaliyoti ham tubdan liberallashtirilmoqda. Shuningdek, davlat xizmatlari markazlari ko‘rsatayotgan xizmatlariga nisbatan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko‘rsatilayotgan elektron xizmatlar ulushi 2022-yilda 60 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2030-yilga borib, bu ko‘rsatkich 90 foizga yetishi rejalashtirilgan.

Davlatning regulyativ funksiyalari qisqartirilishi, albatta, iqtisodiyotga ortiqcha aralashuvga barham berib, biznes subyektlari faoliyati samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatimiz siyosatida ushbu masala doimo kun tartibida. Tadbirkorlar uchun qulay iqtisodiy muhit yaratish borasida o‘nlab farmon va qarorlar qabul qilingani, ishbilarmonlar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot formati joriy etilgani fikrimiz tasdig‘idir.

Uchinchidan, davlat boshqaruvi organlari sonini optimallashtirish, ulardagi nomaqbul takrorlanish va parallel funksiyalarni bartaraf etish, ma’muriy tartib-taomillar tizimini yanada takomillashtirish bugungi ma’muriy islohotlarning bosh yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda.

Prezidentimizning 2022-yil 21-dekabrdagi “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida davlat boshqaruvi tizimini isloh etishning bosh mezoni sifatida ixcham, professional va natijaga yo‘naltirilgan davlat apparatini shakllantirish masalasi qo‘yildi. Bu talab bugun davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatini tashkil etish hamda baholashning eng muhim indikatori sifatida shakllanib, barcha darajadagi davlat xizmatchilari uchun asosiy harakat drayveriga aylandi.

Ma’muriy islohotlarning dastlabki muhim muvaffaqiyatidan biri ilg‘or xorijiy tajribaga asoslangan holda ijro etuvchi hokimiyat organlarining yagona mantiqiy-funksional tarkibi tasdiqlanishidir. Ijro etuvchi hokimiyat organining “vazirlik — qo‘mita — agentlik — inspeksiya” yagona boshqaruv tizimi sifatida belgilab qo‘yilgani qabul qilinayotgan qarorlar ijrosini ta’minlashga ancha samarali ta’sir ko‘rsatayotgani qayd etilmoqda. Bu borada dastlabki ijobiy natijalar bilan birga zarur islohotlar davom ettirilmoqda.

Davlat boshqaruvini takomillashtirishning mazkur yo‘nalishiga “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ham alohida e’tibor qaratildi. Unda davlat funksiyalarini qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish, xususan, davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish kabi nihoyatda muhim va demokratik islohotlar belgilangan. Jumladan, “davlat boshqaruvida mavjud bo‘lgan 5 mingga yaqin funksiyani amalga oshirish jarayonlarini 100 foiz raqamlashtirish; davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish siyosati doirasida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining kamida 30 foiz vazifa va funksiyalarini mahalliy ijro organlariga o‘tkazish; davlat organlari rahbarlarining o‘zi rahbarlik qilayotgan idora yoki tizim faoliyatida yo‘l qo‘yilgan jiddiy xato va kamchiliklar uchun siyosiy javobgarligi institutini joriy qilish” kabi vazifalar alohida qayd etilgan.

To‘rtinchidan, davlatning boshqaruv funksiyalari hamda regulyativ vakolatlarini davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bo‘g‘inlari orasida samarali taqsimlash mamlakatdagi ma’muriy islohotlarning yangi bosqichi bo‘lib shakllandi. Bu jarayonda davlat hokimiyati tizimini nomarkazlashtirish bilan birga davlatning boshqaruv instituti sifatida funksiyalarini nomarkazlashtirish ham ko‘zda tutilmoqda.

Konstitutsiyamizda ham davlat hokimiyatini nomarkazlashtirish borasidagi muhim normalar aks etgan. Ular bugun O‘zbekistonning mutlaqo yangi ijtimoiy-siyosiy va ma’muriy-huquqiy qiyofasini yaratishga xizmat qilmoqda.

Mazkur yo‘nalishda Prezidentimizning 2024-yil 2-fevraldagi “Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilingani nihoyatda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Davlat hokimiyatining mahalliy darajada vakillik va ijro etuvchi organlararo qayta taqsimlanishi mustaqil milliy davlatchiligimizda davlat qurilishining yangi bosqichi sifatida shakllanmoqda.

Beshinchidan, davlat xizmatchilarining o‘z kasbiga sadoqati, professional va natijador faoliyati, zimmasiga yuklangan davlat vazifalarini o‘z vaqtida va sifatli bajarish salohiyati mavjudligiga alohida o‘rin berilishi lozim.

“Mahalla yettiligi” oddiy tizim emas

Mahalla obodligi va xalq farovonligini ta’minlash samarali davlat boshqaruvining asosiy indikatoriga aylanmoqda. Chunki mahallaning obodligi va fuqarolar farovonligi, mamlakatdagi keng qamrovli sa’y-harakatlarning har bir xonadon va fuqarolar hayoti yaxshilanishida aks etishi islohotlar samaradorligi bosh mezoniga aylanib bormoqda. Nafaqat davlat boshqaruvi yoki davlat xizmati samaradorligi, balki barcha toifadagi tarmoq va hududiy rivojlanish dasturlari natijadorligining bosh mezoni mahalla hayotining tubdan yaxshilanishi, insonlar munosib yashashi uchun eng muhim shart-sharoitlar yuqori darajada tashkil etilishi bilan belgilanmoqda.

Mahalla instituti o‘z tarixi va an’analariga ko‘ra davlat boshqaruvi tizimiga kirmasa-da, bugunga kelib, davlat siyosati samaradorligini ta’minlaydigan makonga aylanib ulgurdi. Prezidentimizning 2023-yil 21-dekabrdagi “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, mahalla hayotida “davlat — mahalla — fuqaro” muloqotining mohiyat va sifat jihatidan butunlay yangi munosabatlar tizimi shakllana boshladi.

Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini mahalla darajasigacha tushirish, har bir mahallada mas’ul davlat xizmatchilari qatlamining shakllanishi bir qarashda davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan ko‘plab yangi lavozimlarni keltirib chiqarayotgandek ko‘rinsa-da, aslida, davlat boshqaruvi tizimini nomarkazlashtirish yo‘nalishida jadal va samarali islohotlar boshlanganining yaqqol ifodasidir.

Fikrimizcha, davlat va jamiyat munosabatlarida jadal shakllana boshlagan yangi “mahalla yettiligi” tizimi samaradorligini ta’minlash davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimini nomarkazlashtirish, jumladan, davlat funksiyalari va regulyativ vakolatlarini tezroq quyi boshqaruv bosqichlariga tushirish, shuningdek, davlatning iqtisodiyot va ijtimoiy hayotga aralashuv mexanizmlarini yanada liberallashtirish hisobidan amalga oshirilishi lozim. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ham ushbu tamoyil ko‘zda tutilgan.

Biz “mahalla yettiligi” tizimini davlat va jamiyat boshqaruvining vaqtinchalik muammolarini hal etish uchun tashkil etilgan institut sifatida emas, balki davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimini nomarkazlashtirish va liberallashtirish borasida samarali islohotlarning mantiqiy davomi sifatida tushunishimiz lozim.

Masalan, mazkur tizim joriy etilgani tufayli shakllangan qo‘shimcha davlat xizmatchilari shtati o‘z mohiyatiga ko‘ra, davlat byudjetiga yaqin muddatlarda qo‘shimcha yuk sifatida namoyon bo‘layotgan esa-da, o‘rta va uzoq muddatda davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimini nomarkazlashtirish va liberallashtirish islohotlari davomiyligi oqibatida davlat boshqaruvi natijadorligi sifatida aks etadi.

Davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish orqali eng quyi davlat boshqaruvi bo‘g‘inlarida samarali davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini yaratish borasida Germaniya va Janubiy Koreyaning ilg‘or tajribaci ma’lum. O‘zbekistonda esa mahalla darajasida davlat-xususiy va davlat-ijtimoiy sherikligining ajoyib va betakror amaliyoti joriy qilinayotgani hatto eng ilg‘or mamlakatlar tomonidan ham e’tirof etilmoqda.

Bugun mamlakatimizda mahalla aholisining ijobiy kayfiyati, obod va farovonlik ko‘zgusi, xavfsizlik va taraqqiyot maskani ekani bois, davlat boshqaruvi organlari xususiy sektor va ijtimoiy institutlarga tayangan holda, ularga har tomonlama ko‘mak berish orqali davlat siyosatini samarali ro‘yobga chiqarishda katta natijalarga erishmoqda. Tom ma’noda davlat siyosati va boshqaruvi natijadorligi mahalla ahlining davlatdan roziligi va uning siyosatini qo‘llab-quvvatlovi bilan o‘lchanishi islohotlar samaradorligining bosh mezoniga aylanmoqda.

Ijro samaradorligini ta’minlovchi kuch

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida davlat fuqarolik xizmatini meritokratiya, halollik va professionallik tamoyillari asosida tashkil etish kabi muhim strategik maqsad belgilab berildi. Jumladan, “davlat fuqarolik xizmatchilarini uzluksiz malaka oshirib borish tizimi bilan qamrab olish darajasini 100 foizga yetkazish, milliy kadrlar zaxirasida rahbarlik lavozimlariga nomzodlar sonini kamida ming nafarga yetkazish” kabi muhim vazifalar qo‘yildi.

Albatta, qonunlar o‘z-o‘zidan samarali ishlamaydi. Ularning amal qilishini ta’minlovchi professional bilim va malakaga ega rahbar kadrlar, davlat xizmatchilari va soha mutaxassislari lozim. Qabul qilinayotgan qonun, farmon, qaror va dasturlar ijrosi samaradorligi hamda natijadorligi, birinchi navbatda, ularni to‘g‘ri tushunadigan, samarali bajaradigan, ijrosi monitoringini aniq yuritadigan davlat xizmatchilari va soha mutaxassislariga bog‘liq. Bu o‘rinda Germaniyaning birinchi kansleri Otto fon Bismarkning mashhur so‘zlarini eslash joiz: “Yomon qonunlar va yaxshi amaldorlar bilan mamlakatni boshqarish mumkin. Ammo amaldorlar yomon bo‘lsa, eng yaxshi qonunlar ham yordam bermaydi”.

Davlat xizmatchilari belgilangan tartib-qoidalarga o‘zgarmas qolip sifatida amal qiladigan, klassik byurokratiya tizimida davlat boshqaruvi sohasiga biror yangilik kiritish, islohotlar qilish ancha mushkul masala. Shu sababli samarali davlat konsepsiyasi davlat xizmatchilaridan innovatsiyalarga ochiqlikni, yangi g‘oya va imkoniyatlarni boshqaruv tizimida qo‘llay olishni, ilg‘or davlatlar tajribasini o‘rganishni talab qiladi. Xorijiy muvaffaqiyatli modellarga ko‘r-ko‘rona taqlid qilmaslik, balki ijobiy va salbiy tomonlarini hisobga olgan holda farovonlik yaratishning mamlakat sharoitiga mos keladigan eng samarali usullarini diqqat bilan tanlash muhim.

Shu o‘rinda inson resurslarini boshqarish jarayoniga uzluksiz bilim olish madaniyatini singdirish, davlat xizmatchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash, shuningdek, professional kompetensiyasini oshirishga qaratilgan maxsus dastur va kompleks chora-tadbirlarni zamonaviy xalqaro standartlar asosida amalga oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Samarali davlat boshqaruvi tizimiga erishish uzoq muddatli strategik islohotlar jarayoni bo‘lib, davlat, jamiyat va iqtisodiyotning o‘zaro maqsadli konsolidatsiyasini taqozo etadi. Bu jarayonda umumiy strategik mexanizmni yo‘l-yo‘lakay, obyektiv ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarga mos ravishda to‘g‘rilab borish talab etiladi.

Bugungi iqlim o‘zgarishlari sharoitida avval olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari o‘rganilib ish tutilsa, xayrli va barakali bo‘ladi, xorijdan keltirilgan g‘o‘za navlari ham ko‘p yillar davomida paxtachiligimiz rivojiga xizmat qiladi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 25-aprel, 79-son

news | yuz_official | yuz.uz_news | yuz

Kun nafasi

XORIJIY G‘O‘ZA NAVLARI

paxtachilikda yuqori marralarga erishishda qo‘l keladi

Abdurauf QORJOVOV,
sharhlovchi

Boshlanishi 1-betda

Bu yildan ilk bor chetdan olib kelingan chigitni ekishga ruxsat berildi. Lekin shu paytgacha Prezident huzuridagi Paxtachilik kengashi, O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi, viloyat hokimlari bir to‘xtamga kelib, qayerdan, qanday navli urug‘ olib kelib, qayerga ekishni hal qilmagani ko‘rsatib o‘tildi.

Shu munosabat bilan qisqa muddatda xorijdan 3 ming tonna urug‘lik chigit olib kelish topshirildi. Umuman, joriy yilda 100 ming gektarda yuqori hosildor xorijiy paxta navlarini ekish muhimligi ta’kidlandi.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 15-dekabrdagi “Paxtachilikda urug‘chilik tizimini rivojlantirish hamda paxta hosildorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan tajriba-sinov tariqasida yuqori hosildor xorijiy g‘o‘za navlari va duragaylarini olib kirish hamda paxta-to‘qimachilik klasterlari va fermer xo‘jaliklari tasarrufidagi paxta ekiladigan maydonlarning 10 foizigacha joylashtirishga istisno tariqasida ruxsat berilgan edi. Bu g‘o‘za urug‘larini kelgusida boshqa hududlarga ekish va ekiladigan maydonlarni kengaytirish, hosildorlik ko‘rsatkichlari va g‘o‘za urug‘lari tuproq-iqlim sharoitlariga mos tushganiga qarab, Paxtachilik kengashi xulosasiga asosan amalga oshirilishi mumkin.

Qolaversa, belgilangan talabga ko‘ra, xorijdan keltirilgan g‘o‘za urug‘larining genetik tozaligini molekulyar-genetik tahlil qilish bo‘yicha mahalliy vakolatli laboratoriyalar xulosasi olinadi hamda barcha import qilinadigan g‘o‘za urug‘larining ekinboplik sifat ko‘rsatkichlari baholanadi. Bu g‘o‘za navlari va duragaylarining ikki yillik yetishtirish natijalari talablarga mos kelsa, respublika hududida ekish uchun tavsiya qilingan qishloq xo‘jaligi ekinlari davlat reestriga kiritiladi.

— Avvallari bir navni katta maydonlarga ekib, parvarishlab, hosilga kirgach, unga baho berardik, — deydi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari Aktam Daliyev. — Yaxshi yoki yomon ko‘rsatkichga erishganimizni bilish uzoq vaqtni talab qilardi. Ayni paytda esa ilg‘or texnologiyalar, xususan, molekulyar markerlar o‘simliklarning muayyan xususiyatlarini ekin yetilguniga qadar aniqlash imkonini beradi. Dunyoda paxta maydonlarining 95 foizidan ortig‘ida o‘rta tolali g‘o‘za turi ekiladi. Bunday oliy tolali paxta navlarini yaratish va amaliyotga joriy qilish uchun o‘tkaziladigan katta hajmdagi genetik tahlillarning ahamiyati yuqori.

Fanlar akademiyasining Genomika va bioinformatika markazi olimlari tomonidan molekulyar markerlar yordamida qisqa muddatlarda g‘o‘zaning tola sifati yuqori va katta agronomik imkoniyatlarga ega ikkita yangi navi yaratildi. Bu navlar tog‘li hududlarda yetishtiriladigan dag‘al tolali paxta navlari o‘rnini to‘ldirib, to‘qimachilik sanoati ehtiyojlariga javob beradigan xomashyo bo‘la oladi. Masalan, “Porloq-1”, “Porloq-2,3,4,5” va “Ravnaq-1” va “Ravnaq-2” g‘o‘za navlari shunday xususiyatlarga ega. Navlar tolasi uzun va pishiq bo‘lishi dunyo g‘o‘za seleksiyasi dasturining muhim muammolaridan biri. Uning yechimini topishga ayni shu kabi g‘o‘za navlari hissa qo‘shib kelmoqda.

Shunday ekan, savol tug‘ilishi tabiiy: aslini olganda, xorijiy g‘o‘za navlarini olib kelib ekishdan asosiy maqsad nima?

— Bunda paxtachilikda zamonaviy samarador agrotexnologiyalarni qo‘llash va urug‘chilik tizimiga erkin bozor mexanizmlarini joriy etish orqali hosildorlikni keskin oshirish, paxta xomashyosini yetishtirishda ilmiy-innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishni kengaytirish niyat qilinyapti, — deydi Aktam Daliyev. — Xorijdan olib kiriladigan paxta navlari uchun alohida agrotexnika va soddalashtirilgan karantin talablarini joriy etish, ushbu navlarni yetishtirish maxsus karantin kuzatuvida va Paxtachilik kengashi ilmiy ko‘rsatmasi asosida olib borilishi belgilangan. 2024-yildan hosildorligi 30 sentnerdan past navlar muntazam aniqlanib, serhosil mahalliy va xorijiy navlarga almashtirib borish amaliyoti joriy qilinishiga kirishildi. Paxtachilikka oid yangi ilmiy ishlanmalar va innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun 14 ta tuman tanlab olingan. Ularga jahon paxtachiligida hosildorlik va hajm jihatdan ilg‘or bo‘lgan Xitoy, AQSH, Turkiya kabi mamlakatlardan keltirilayotgan paxta urug‘i navlari yetkazib berilyapti.

Bu navlarni olib kirishda ularning qaysi jihatlari e’tiborga olinyapti? Birinchi navbatda, vegetatsiya davri 115-120 kun, hosildorligi 60-80 sentner, tola chiqimi 40 foizdan, yigiruvchanligi

160 dan ziyod bo‘lgani holda, global iqlim o‘zgarishlari sharoitida suv ta’minoti og‘ir, ball boniteti past maydonlarda yetishtirishga mos, yuqori harorat, garmsel, suv tanqisligi, tuproq sho‘rlanishiga bardoshli, sanoatbop bo‘lishi zarur.

Shu bilan birga, 2024-2027-yillarda an’anaviy va noan’anaviy seleksiya usullari orqali yuqori hosildor, tezpishar, tola sifati yuqori, kasallik va hasharotlarga chidamli biotexnologik navlarni yaratish, zamonaviy agrotexnologiyalar ishlab chiqish, innovatsion loyihalarni maqsadli moliyalashtirish choralari ko‘rilyapti.

O‘tgan hafta Sirdaryo viloyatining Sayxunobod tumanida ushbu yumushning bajarilishi jarayoni o‘rganildi. Aksariyat maydonlarda nihollar tekis unib chiqqan. Ayrim fermer xo‘jaliklarida g‘o‘za qator orasiga kultivatorlar yordamida ishlov berilmoqda.

“Polutex Sirdaryo” MCHJga qarashli 30 gektar maydonda Xitoydan keltirilgan urug‘lik chigit ekilyapti. Bu “Bullguard 11” navi bo‘lib, undan gektariga kamida 50 sentnerdan hosil olish ko‘zlanyapti. Paxtachilik kengashining tuman ishchi guruhi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Tuproqshunoslik va agrokimyoviy ilmiy-tadqiqot instituti mutaxassislari tomonidan klaster vakillariga yangi nav agrotexnikasi bo‘yicha tavsiyalar berildi.

— Albatta, xorijdan keltiriladigan g‘o‘za navlari xo‘jalik belgilari, morfobiologik xususiyatlari, tolasining texnologik sifat ko‘rsatkichlari, hasharot va kasalliklarga bardoshliligi bilan O‘zbekiston g‘o‘za navlaridan yuqori ustunlikka ega bo‘lishi zarur, — deydi professor Odiljon Ibrohimov. — Yangi navlar agrotexnologiyada, ularni bajarish muddatlari va me’yorlarida zinhor adashmaslikni talab etadi. Ayniqsa, sug‘orish va mineral o‘g‘it solish me’yorlariga qat’iy rioya qilish lozim. Zero, 1996-yilda AQSHdagi “Meridi Jons” kompaniyasining o‘ndan ortiq g‘o‘za navi Yozyovonda, 1998-yilda Bolgariyaning “Beliy izvor” navi Shahrixonda, 1999-yilda Isroilning “Gedera 5”, “Gedera 10” navlari Sirdaryo viloyatida tadqiqot uchun ekilgan. Lekin ularning aksariyati kutilgan natijalarni bermagan.

Bugungi iqlim o‘zgarishlari sharoitida avval olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari o‘rganilib ish tutilsa, xayrli va barakali bo‘ladi, xorijdan keltirilgan g‘o‘za navlari ham ko‘p yillar davomida paxtachiligimiz rivojiga xizmat qiladi. Buning uchun bir tup g‘o‘za sig‘adigan yer ham bo‘sh qolmaydigan darajada chigit ekilib, “to‘liq ko‘chatli maydon” monitoringini o‘tkazish kerak. Chunki hosilni ko‘chat beradi. Maydonlarda g‘o‘za nihollarini qiyg‘os undirib, to‘liq nihol olishning ayni vaqti hozir ekanini unutmaslik kerak.

Tabiiyki, g‘o‘zaga ishlov berish jarayoni o‘g‘it, yoqilg‘i, texnika va boshqa xizmatlar bilan uzviy bog‘liq. Tobiga kelgan yer hech qachon kutib turmaydi. Biroq 2024-yil paxtasini sotish bo‘yicha fyuchers shartnoma tuzgan fermerlarning muayyan qismi haligacha kredit olmagan. Sababi, ayrim banklar “resurs yo‘q, garov ta’minoti kerak” degan vajlar bilan kechiktirib yuboryapti. Afsuski, buni dalada ko‘zni quvnatib, qiyg‘os unib chiqqan mahalliy, xorijdan keltirilgan g‘o‘za navlari ham tushunmaydi. O‘z tobida o‘tkazilmagan ishlov esa yuqori hosilga yo‘l bermaydi.

Olim-mutaxassislar fikricha, quruq iqlim sharoitida yetishtiriladigan paxta dunyo miqyosida kiyim-kechakka bo‘lgan ehtiyojning uchdan birga yaqinini ta’minlaydi. Chigitdan yog‘ olinadi, chorva mollarini oziqlantirishda va yana boshqa yo‘nalishlarda ishlatiladi. Bugungi kunda esa paxtadan innovatsion mahsulotlar yaratishda ham keng foydalanilmoqda.

To‘qimachilik sanoatida tabiiy o‘simlik tolalari keng qo‘llanishi paxtaga talabni kun sayin oshirib boryapti. “Oq oltin” yetishtirishdan olinadigan global biznes daromadi yiliga yarim trillion AQSH dollarini tashkil etishini hisobga olsak, mazkur ekin iqtisodiy jihatdan qo‘shimcha qiymatga egaligi yaqqol anglashiladi. Turli iqlim sharoitlari, kasallik va zararkunandalarga chidamli, hosildor, a’lo tolali g‘o‘za navlarini yaratish orqali to‘qimachilik sanoatini yanada yuqori bosqichga olib chiqish mumkin.

Ayni kunda mahalliy istiqbolli g‘o‘za navlarini ko‘paytirish, sifatli elita urug‘chiligini yo‘lga qo‘yishga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, yuqorida qayd etilgan qaror bilan navni tijoratlashtirishda klaster va fermerlarga tegishli navga hammualliflik qilishga ruxsat berildi. Bu jarayonda sertifikatlangan urug‘lik tayyorlash bosqichma-bosqich klasterlar va xususiy urug‘chilik korxonalariga o‘tkaziladi. Urug‘lik paxta xomashyosini yetishtiruvchilar (paxta-to‘qimachilik klasterlari, fermer xo‘jaliklari, kooperatsiyalar)ga mahalliy olimlar yaratgan rayonlashtirilgan, istiqbolli va yangi g‘o‘za navlarini originatorlar bilan tuziladigan litsenziya shartnomasi asosida joylashtirish huquqi beriladi, bunda urug‘liklar uchun to‘lanadigan ustama mablag‘ mazkur subyektlar o‘rtasida o‘zaro kelishuv asosida yo‘lga qo‘yiladi.

Davlatimiz rahbarining o‘tgan yil 12-dekabrdagi “Qishloq xo‘jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga asosan, 2024-yil hosilidan boshlab paxta xomashyosi yetishtiruvchilar va paxta-to‘qimachilik klasterlari o‘rtasida munosabatlar yangi tartibda tashkil etildi. Chigit ekilishidan avval fermer xo‘jaliklari va viloyat ichidagi klaster o‘rtasida tuproq hosildorligi doirasida fyuchers shartnomalar Tovar-xomashyo birjasining paxta xomashyosi seksiyasida har bir hudud uchun o‘tkaziladigan savdolar orqali tuzildi.

— Shartnomaning boshlang‘ich qiymati Nyu-York birjasida paxta tolasining oxirgi 12 oydagi o‘rtacha narxiga muvofiq belgilandi, o‘rtacha narxlar esa talab va taklif asosida shakllandi, — deydi birja bosh makleri Islombek Ibrohimov. — Natijada 2024-yil yanvar-fevral oylarida qariyb 28 mingta fermer xo‘jaligi tomonidan fyuchers shartnoma asosida 1,7 million tonnadan ziyod paxta xomashyosi birja savdolari orqali sotildi.

Bundan tashqari, fyuchers shartnomadan ortiqcha yetishtirilgan paxta xomashyosi yoki undan olinadigan birlamchi va ikkilamchi mahsulotlarni fermer xo‘jaliklari to‘g‘ridan to‘g‘ri bitim tuzgan klasterga yoki birja orqali istalgan subyektga sotishi mumkin. Agar fermer paxta xomashyosini o‘z mablag‘i, shu jumladan, tijorat kreditlari hisobidan yetishtirgan bo‘lsa, bunda yig‘ib-terilgan hosil va undan olinadigan mahsulotlarni spot shartnomalar asosida birjada erkin sotadi. Bunday imkoniyatlar unga ham, xomashyoni sotib olayotgan xo‘jalik subyektiga ham yaxshigina daromad keltiradi.

OBOD MANZILLAR

RISHTON ADIRLIKLARIDA *hayot daraxti*

Uning bir tupidan 5 million so‘m sof daromad olish mumkin

Rishton tumanidagi “Navbahor” mahalla fuqarolar yig‘ini janubidagi dala-dashtlar dengiz sathidan qariyb 800 metr balandlikda joylashgan. Suv yo‘qligi sabab shu kunga qadar biror tup nihol o‘tqazilmagan.

Poyonsiz kengliklar, baland-past, tosh-shag‘aldan iborat maydon piyoda yurishga ham izn bermaydi go‘yo. Bahor tafti sezilib turgan bo‘lsa-da, qir-adirlar oralab o‘ziga xos kuch olib, yuqoridan esayotgan shamol ko‘ksimizga panja urib, ortga niqtaydi. Shamol kuchini yengish ilinjida bir oz oldinga engashib yuramiz. Shamol yer bag‘irlab gir-gir aylanib, oyog‘imizdan tortishga chog‘lanadi. Hamrohim boshidagi do‘ppisini shamol uchirib ketmasligi uchun uni mahkam tutadi.

— Qo‘qon shamolining eshigi bu yerlar. Haqiqiy shamol tursa bormi, qochgani joy topilmay qoladi. Yozi juda issiq, qishi sovuq bo‘ladi, — deydi tuman hokimining matbuot xizmati rahbari Abror Dehqonov.

Taqir tog‘larga tutashib ketgan ko‘z ilg‘amas dala-dashtlarda qush uchsa qanoti, odam yursa oyog‘i kuyardi. Tepalikka ko‘tarilgach, keng paykallar uzra yastanib borayotgan bog‘larga havas va hayrat bilan qarayman. Bu yerda yashash, mehnat qilishning o‘zi jasorat.

Zohidonlik Qodirali Qosimov tinib-tinchimagan tashabbuskorlardan. Oliy ma’lumotli muallim. Boshqalar qatori belgilangan dars soatini o‘tib, xotirjam yursa ham bo‘ladi. Ammo uning hayot a’moli, qarashlari bunga yo‘l bermaydi. Jamiyatda bo‘layotgan o‘zgarishlarga befarq emas. Yangiliklar yo‘lida izlanadi, harakatdan to‘xtamaydi, tashabbus ko‘rsatib, ko‘pga ibrat bo‘lib keladi.

Birinchilardan bo‘lib maktab o‘quvchilari uchun repetitorlik kurslari tashkil qildi, xususiy maktab qurib bitkazdi. Bu yerda mingga yaqin yosh ta’lim olmoqda.

Biz maktab haqida emas, balki oddiy qishloq o‘qituvchisining pista va sarxil mevali bog‘lar yaratish yo‘lidagi izlanish va tashabbuslariga e’tibor qaratdik. Bugungi kunda uning sa’y-harakati bilan 300 gektar taqir yerni o‘zlashtirish loyihalari amalga oshirilyapti.

— Xarid uchun do‘konga kirdim, — deya xotirlaydi Qodirali bog‘lar oralab borar ekan. — Sotuvchidan pista narx-navosini so‘radim, qimmat ekan, ololmadim. Bu tabiiy, chunki pista bizga chetdan importga kelayotgani bois, do‘kondorga e’tiroz bildirmay ortga qaytdim. Shundan so‘ng uni o‘zimizda yetishtirib, mahalliylashtirish, mahsulot tannarxini arzonlatish g‘oyasi tinchlik bermay qo‘ydi. Internet orqali ko‘chat yetishtirish, parvarishlash bilan bog‘liq tajribalarni o‘rganib, o‘z tomorqamda sinovdan o‘tkazdim. Natija kutilganidek samara berdi. “Pandigan” mahalla fuqarolar yig‘inida pista ko‘chatchiligi, 1200 kvadrat metr joyda kaliforniya qizil chuvalchangi parvarishlash va biogumus tayyorlashni yo‘lga qo‘ydik. Bu yirik pista ko‘chatlari plantatsiyasini tashkil etishda ozuqa vazifasini o‘tadi.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi bu sohada yangi imkoniyatlarga eshik ochdi. Asrlar davomida suvsizlik, e’tiborsizlikdan qaqrab yotgan, tosh-shag‘al yerlarda pistachilik plantatsiyalarini tashkil etishga kirishildi. Ikki yuz metr pastlikdan oqib o‘tgan So‘x daryosiga ikki ko‘tarmali suv nasoslari o‘rnatildi, umumiy hajmi 16 ming kub metr suv sig‘imiga ega 4 ta sun’iy hovuz qurildi, tomchilatib, yomg‘irlatib sug‘orish mexanizmlari o‘rnatildi. O‘tgan yilgi mavsumda 157 gektar yer o‘zlashtirilib, 141 ming tup pista, 54 mingga yaqin o‘rik, gilos, shaftoli va nok ko‘chati ekildi. Ko‘chatlar tagida kavrak, kiyiko‘t, tog‘ yalpizi kabi dorivor giyohlar parvarishlanyapti.

Toshda gul undirib, olamga go‘zallik iforini

taratayotgan “Agro cold service drop” MCHJ yaratgan bog‘lardagi ko‘chatlar rivoji avjida. Gektarlar uzra ekilgan mevali bog‘larning oxiri yo‘qdek.

Qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish oson kechgani yo‘q, albatta. Bu yerda umumiy uzunligi 3 kilometrdan ortiq yo‘l qurildi, 5 kilometrdan elektr simlari tortib kelindi. Yer tekislash, unumsiz qatlamini olib tashlash, mahalliy o‘g‘itlar bilan boyitish singari mavsumiy ishlar bajarildi.

Bu jabhada bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilinmasa bo‘lmaydi. Har qanday ekinni ekib qo‘yish bilan kifoyalanib qolmaslik kerak. Avvalo, suv, mehr va e’tibor tufayli mehnat ko‘zga ko‘rinadi. Bog‘dagi yumushlarga ko‘z-quloq bo‘lib yurgan xo‘jalik agronomi Musajon Qosimov suhbatimizga qo‘shildi.

— O‘tgan asrning elliginchi yillarida ham bu hududlarni o‘zlashtirish sa’y-harakatlari bo‘lgan. Ammo faqat daryo qirg‘oqlariga yaqin hududlarni o‘zlashtirish, odatiy mevali ko‘chatlar ekish bilan kifoyalangan. Tepalikka suv olib chiqib, bog‘ yaratishning imkoniyatini topa olishmagan. Bugun hamma narsa o‘zgardi. Mehnat qilaman deganga barcha sharoit va imkoniyatlar bor. Bir gektar yerda pistazor tashkil etish uchun 270 tup ko‘chat ekiladi. Har bir tupi o‘rta hisobda o‘n kilo hosil bergan taqdirda ham mavsumda salkam 300 million so‘m daromad olish mumkin bo‘ladi. Pista oddiy mevali bog‘larga qiyoslanganda yuz hissadan ortiq daromad beradi, ming yilga qadar yashaydi.

O‘tgan bahor mavsumida saralab ekilgan pista ko‘chatlari tup olib, bo‘y cho‘zmoqda. To‘rt-besh yilda hosilga kiradi. Bir kilo mahsulotning chakana narxi o‘rta hisobda 100 ming so‘m ekani hisobga olinsa, 141 ming tup niholdan kelayotgan daromad salmog‘ini chamalab olish qiyin emas.

— Pistachilik rivojlangan mamlakatlarda bu xosiyatli daraxtdan ko‘rilayotgan naf juda yuqori. Shu bois, uni hayot daraxtiga qiyoslashadi, — deydi “Agro cold service drop” MCHJ rahbari Qodirali Qosimov. — Mevasiga talab yuqori. Uning mag‘zida 60 foizgacha moy, 20 foiz oqsil, qand va boshqa foydali mikroelementlar mavjud. U qurg‘oqchilik, yuqori va past haroratda o‘sishga moyil. Shu ko‘klamda yana 20 ming tup ko‘chat ekdik. Oddiy usulda ekilgan ko‘chatlar 11-12 yilda hosilga kiradi va bir tup daraxtdan dastlabki yillarda bir kilogacha hosil olish mumkin. Biz yangi texnologiyalar asosida ko‘chat yetishtirib, hosildorlikni oshirishga e’tibor qaratyapmiz. Ko‘chatxonlarda o‘stirilgan nihollar ikkinchi yilda navdor ko‘chatlardan olingan kurtaklar bilan payvandlangach, uchinchi yilda ochiq maydonlarga o‘tqazamiz. Bu texnologiya asosida ekilgan ko‘chatlar 7-8 yilda meva tutadi. Yaxshi o‘sib, rivojlangan bir tup daraxtdan bosqichma-bosqich 40-50 kilogacha hosil olish mumkin.

Issiqxonada ko‘chat yetishtirish, payvandlash bo‘yicha agromaktab ham tashkil qilingan. Istiqbolli loyihalar dasturiga ko‘ra, pista va boshqa turdagi ko‘chatlarni invitro usulida ko‘paytirishga ixtisoslashtirilgan laboratoriya qurilishi jadallik bilan davom etmoqda. Yangi loyiha bir vaqtning o‘zida bir million tup ko‘chat yetishtirish, ehtiyojdan tashqari mahsulotlarni boshqa xo‘jaliklarga sotish, qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish imkoniyatini beradi.

— Bu yerda kasanachilik asosida ishlayman, — deydi Adhamjon Abdazov. — Issiqxonada ko‘chat yetishtirish, payvandlash, ekinlar parvarishi bilan bog‘liq mavsumiy yumushlarga ko‘maklashamiz. Bepul tushlik, ishga kelib-ketish uchun texnika ajratilgan. Toshloq yerga suv olib borib, bog‘ yaratish ancha mushkul ish. Lekin hamjihatlik bo‘lgan joyda fayz, baraka bo‘ladi deganlari rost ekan. O‘tgan yili qilgan mehnatlarimiz samarasini ko‘rib, faxrlanib ketamiz. Ko‘chatlar tup olib, yaproq yozmoqda. Bu yerlar yaqinda ham tap-taqir shag‘al edi desangiz, ko‘pchilik ishonmaydi. Tosh ustida chin ma’noda gul undirilyapti.

Ekinlar oralig‘ida, 13 gektar yerda kavrak, kiyiko‘t, tog‘ yalpizi bo‘y ko‘rsatib turibdi. Bu shifobaxsh o‘simliklarga talab ichki va tashqi bozorda yuqori. Asosan, tog‘ yonbag‘rida o‘sadigan o‘simlik turlarini mahalliylashtirish, qayta ishlash yo‘nalishida “yo‘l xaritalari” ishlab chiqildi. Endi nafaqat pista, balki xalq tabobati yo‘nalishida yangi tarmoqlar faoliyati ham yo‘lga qo‘yiladi, eko va agroturizm tarmoqlari rivojlantiriladi.

Pistazor oralab, atrofdagi tabiiy go‘zallik, giyohlarning xush bo‘yidan bahra olib dilingiz yayraydi. Yozi issiq, qishi sovuq, g‘arbdan muttasil esib turuvchi shamol injiqliklarida ko‘chat ko‘kartirib olish oson bo‘layotgani yo‘q. Lekin yurtni obod va farovon aylashga yeng shimargan sohibkorlar sabr-bardosh bilan keng dala-dashtlarda pistazor bog‘lar yaratmoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Dolzarb mavzu

MILLIY KONTENT nima uchun kerak?

yoxud maqsad — hududlarni emas, ongni egallash

Shavkat TO‘RAYEV,
falsafa fanlari doktori

Boshlanishi 1-betda

Biz tez sur’atlar bilan o‘zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan shiddatli va ayni paytda o‘ta murakkab zamonda yashamoqdamiz. Bu davrda xalqni birlashtirishi va jarayonlarni tartibga solishi mumkin bo‘lgan g‘oya, mafkura hamda ma’naviyat sohalarida alohida tizimli ishlarni tashkil qilish globallashuv davri taqozosi emas, yagona himoya vositasi ekanini hayotning o‘zi ko‘rsatib turibdi. Binobarin, jamiyatda ma’naviy va mafkuraviy jarayonlar yangicha tarzda tashkil etilib, kishilar orasida to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmas ekan, butun jamiyat mafkuraviy tahdidlar qurboniga aylanib qolishi hech gap emas.

Jahondagi mavjud murakkab vaziyat tufayli davrning mafkuraviy tahdidlari yanada kengayib ulgurdi. Zamonaviy mafkuraviy tahdid omili hozirgi vaqtda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma’naviy sohalarni, ya’ni insoniyat jamiyati hamda hayotining barcha sohalarini qamrab oldi. Bu esa global tahdidlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, inson ma’naviyatiga ta’sir ko‘rsatishni asosiy qurol qilib olgan mafkuraviy tahdidlar, avvalo, inson ongi, tafakkuri va xulq-atvoriga xavf-xatar solishdan tashqari ruhiyatida ham yetarlicha muammolarni yuzaga keltirib chiqaryapti.

Mafkuraviy tahdid muayyan jamiyat a’zolarini yagona maqsad va muddaolardan adashtirib, milliy mentalitetga mos kelmaydigan yot g‘oyalar, fikrlar, qarashlar va g‘arazli maqsadlarni chetdan turib eksport qilish jarayonida yanada yaqqolroq namoyon bo‘lmoqda. Uning o‘ta xavfli jihati shundan iboratki, birinchi navbatda, jamiyatning ma’naviy sohasini barbod etishga qaratilgan. Chunki aynan ma’naviy soha har qanday jamiyatning o‘tmishini, mavjudligini, yashovchanligini ta’minlaydigan asosiy ildiz hisoblanadi. Bugungi tahdidlar esa o‘sha ildizga urilgan boltadir.

Tasavvur qiling, bugun biz ma’naviyat deb ataydigan insoniy fazilatlar o‘z qonuniyatlarini o‘zgartirmoqda. Uning o‘zgarishiga o‘zimiz ham xayrixoh bo‘layotganga o‘xshab qolyapmiz.

Keyingi paytlarda mafkuraviy tahdidlarning turli usul va vositalari ishlab chiqilmoqda. Kishi xayoliga kelmaydigan oddiy bolalar o‘yinchog‘idan tortib, ustimizdagi kiyimlar, oziq-ovqat mahsulotlari, qo‘shiqlar, kliplar, multfilm, kinofilm va ijtimoiy tarmoqdagi “trend”, “mem”, “shallenge” lavhalarning har birida katta yoki kichik bo‘lsa-da, millat o‘zligi va ma’naviyatiga ta’sir etuvchi muayyan g‘oya hamda mafkura bor. Buning xavfli jihati shundaki, mafkuraviy tahdid targ‘ibotchilari o‘z maqsadlari yo‘lida sarflaydigan katta miqdordagi mablag‘ rivojlanish bosqichiga kirgan davlat jamiyati a’zolariga qaratiladi va ularni yo‘ldan adashtirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda g‘arazli maqsadlar yo‘lida zimdan kechayotgan mafkuraviy kurashlar ba’zi millatlarning tarixiy ildizi va milliy o‘zligini yo‘qotishga qaratilganini sezish qiyin emas. Bunda e’tibor hududlarni emas, inson ongini egallashga yo‘naltirilgan. Bu davrda shaxsning “o‘ziga xoslik inqirozi” kabi ijtimoiy-psixologik masala dolzarb muammolardan biriga aylanadi.

Bular shaxsning jamiyat a’zolaridan ajralib turishiga qaratilgan xatti-harakatlari bo‘lib, masalan, inson o‘zining Alloh tomonidan unga ato etilgan tanasi va hatto jinsiga ham o‘zgartirish kiritish orqali qalb xotirjamligiga erishishi mumkinligi singari g‘oyalar ishlab chiqilmoqda. Eng xavflisi, ular turli mexanizmlar orqali uzluksiz ravishda Yer yuzi aholisi ongiga singdirilmoqda. Bir qaraganda, uncha xavf tug‘dirmaydiganga o‘xshaydigan bu illatlar fojiasini asrlar davomida shakllanib kelgan oilaga nisbatan qarashlarning keskin o‘zgarishida ham ko‘rish mumkin.

Masalan, statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilning 10 oyi davomida mamlakatimizda ajralishlar soni 41 ming 583 tani tashkil etib, so‘nggi 5 yilda sezilarli ko‘paygan. Jumladan, 2018-yilda 32,3 mingta oilaviy ajralish qayd etilgan. Ya’ni keyingi 5 yilda ajralishlar soni 10 mingtaga ortgan. Bularning bari aynan tashqaridan kirib kelayotgan mafkuraviy ta’sirning alomatlari ekanini anglash qiyin emas.

Bugun hayotimizda boshqalardan ajralib turish uchun harakat qilayotgan yoshlar ijtimoiy tarmoqlar belgilab bergan rollarni bajaruvchi qo‘g‘irchoqqa aylanib boryapti. Kundalik hayotimizda bola uyda o‘smir, o‘g‘il, aka, maktabda esa berilgan vazifalarni sidqidildan bajarishi kerak bo‘lgan o‘quvchi. Aynan shu vaqtda o‘smir haqiqatan “men kimman?” degan savolga ishonchli javob topishni xohlaydi. O‘smirlik inson o‘zini namoyon qilishi uchun juda muhim yosh. Hozirgi sharoitda aksariyat hollarda bu imkoniyat ijtimoiy tarmoqlar tomonidan “o‘ziga xos” tarzda taqdim etilmoqda. Bunga qo‘shimcha ravishda bu yerda inson o‘zi uchun “ideal” — qanday bo‘lishni xohlayotgani haqidagi tasavvurni yaratish nisbatan oson. Bu tasavvurni atrofdagilarga virtual muhitda taqdim etish real hayotdan ko‘ra ancha qulayroq.

Ijtimoiy tarmoqlardagi profillarni yoshlar “ideal o‘zlik” sifatida qabul qilishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Eng yomoni, ular insonni faqat iste’molchiga aylantirib qo‘yishi, har qanday davlat va jamiyatning voyaga yetib kelayotgan avlodlarini virtual jihatdan qaram qilib tarbiyalayotganini ko‘pchilik tushunib yetmaydi. Chunki bugunning aksariyat yoshlaridan tortib, keksalarigacha ijtimoiy tarmoqlar orqali uzatilgan axborotlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri iste’mol qiluvchiga aylangan, uning rost yoki yolg‘on ekani to‘g‘risida fikr ham yuritmay qo‘ygan. Iste’molchi miyasiga asta-sekinlik bilan yillar davomida ta’sir etish orqali ong va tafakkur qaramlikka yuz tutadi.

Jamiyat a’zolari orasidagi baxt va saodat kabi tushunchalar o‘rnini shaxsiy manfaatlar jamoanikidan ustunligi va moddiy farovonlik ma’naviy farovonlikdan yuqori turishi to‘g‘risidagi qarashlar ildiz otayotganini anglash uchun atrofga yaxshilab nazar solish kifoya. Yashashdan maqsad esa hayotdan eng yuqori darajada lazzatlanishdan iborat bo‘lib qoldi. Ruhiy-ma’naviy qadriyatlar, insoniylik, mehr-muruvvat, ezgulik, savob, beg‘araz yordam ko‘rsatish kabi oliy tushunchalar asta-sekinlik bilan hayotga bir bora kelish va lazzat olish hissiga o‘rnini bo‘shatib beryapti. Insonlar o‘rtasidagi munosabatlar faqat foyda va zarar qonuni asosiga qurilmoqda. Ko‘ngilxushliklarning ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan turlari mavjud bo‘lib, ijtimoiy tarmoqlar orqali lahza sayin ma’lumotlar joylanadi. Bu esa nafaqat qaysidir millat, balki insoniyatni yo‘ldan ozdirishi mumkin bo‘lgan mafkuraviy va ma’naviy tahdidga aylandi. Bu tahdidning ko‘lami shunchalik kattaki, u o‘z domiga millatlarni, hattoki davlatlarni tortib ketishi hech gap emas. Bundan ogoh bo‘lish, unga qarshi kurashish lozim.

Bugun mafkuraviy tahdidlarga e’tiborsizlik millat, yurtning kelajagiga e’tiborsizlikdir. Jamiyatimizda mafkuraviy bo‘shliq paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek: “Mafkura sohasida bo‘shliq degan narsaning o‘zi hech qachon bo‘lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta’sirlanishdan to‘xtamaydi.

Demak, unga doimo ma’naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o‘zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo‘ladi, aytinglar? Bunday oziqni u asta-sekin boshqa yoqdan izlaydi. Shunga yo‘l bermasligimiz kerak. Mana, gap nima haqida ketyapti!

Buning uchun o‘zini jamiyatimiz, yoshlarimiz ma’naviyati, g‘oyaviy-mafkuraviy tarbiyasi uchun mas’ul deb bilgan insonlar — bu mahalla yoki diniy tashkilotlar bo‘ladimi, huquq-tartibot idoralari xodimlari yoki katta ta’sir kuchiga ega ijodkor ziyolilar bo‘ladimi — ularning barchasi, ayniqsa, faol bo‘lishlari lozim”.

O‘zbekiston ham zamon bilan hamnafas holda taraqqiyotning yuksak cho‘qqilari sari oldinga intilmoqda. Ana shunday murakkab tahlikali davrda ham yurtimizda ma’naviy rivojlanishning o‘ziga xos paradigmalari shakllandi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni siyosiy, huquqiy, ma’naviy-ruhiy, diniy, axloqiy jihatdan yetuk, barkamol insonlar qilib tarbiyalashdan tashqari yoshlarda tahlil etish va voqea-hodisalarga to‘g‘ri munosabat bildira oladigan, ularni turli tahdidlardan himoya qiladigan o‘ziga xos strategik dasturlar yaratildi va ular bugun amaliyotda o‘z natijalarini bermoqda.

Ayni paytdagi keng ko‘lamli islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad inson hayotini, dunyoqarashini hamda turmush tarzini o‘zgartirishga qaratilgan. Bu o‘zgarishlar zamirida “inson qadri uchun” g‘oyasi yotadi. Ushbu tamoyilning hayotiy haqiqatga aylanayotgani bugun O‘zbekistonda yashayotgan xalqimizning ertangi kunga ishonchi, hayotdan rozi bo‘lib yashashi uchun qilinayotgan harakatida ham o‘z ifodasini topayotir.

Demokratik, huquqiy, adolatli jamiyat barpo qilayotgan davlatda yoshlarning jamiyatda tutgan pozitsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Eng asosiysi, jamiyat a’zolari manfaatini birinchi o‘ringa chiqarishga shaxsiy manfaatlarni jamiyat manfaatlaridan ustun qo‘ymaslik orqali erishish mumkin. Bugun biz shu yo‘ldamiz.

Yangicha yondashuvlar

BO‘SH SINFXONALARNI IJARAGA BERISH

bitiruvchilarning OTMga kirishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatyaptimi?

Yurtimizda muayyan muddat ta’lim tizimidagi muammolar, ortiqcha yuklamalar tufayli maktablarning obro‘si tushib ketdi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisidan tortib, maktab bitiruvchisigacha ongida “maktab bilimi bilan oliy o‘quv yurtlariga kirib bo‘lmaydi” degan tushunchalar shakllandi. Biroq ta’lim tizimiga, o‘qituvchilarga qaratilayotgan e’tibor sabab soha o‘zgarishga yuz tutdi, bu boradagi islohot davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, yoshlarning jahon andazalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim, kasb-hunarlarni egallashi uchun barcha kuch va imkoniyatlar safarbar etildi.

“Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” shiori ostida maktab ta’limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylandi. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ta’lim tizimi islohotlari eng birinchi vazifa etib belgilandi.

Ham o‘qituvchi, ham o‘quvchi mamnun

Boshlangan islohotlar mazmunini anglab, shunga hamohang qadam tashlash kutilgan natijaga erishishning muhim shartidir. Yosh avlod ta’lim olishiga munosib sharoit yaratish, oliy ta’lim muassasalariga kirishi va kasb o‘rganishini rag‘batlantirish ota-onadan tortib, ta’lim tizimi mas’ullarining asosiy vazifasi sanaladi.

Yurtimizdagi ayrim maktablar darsdan so‘ng bo‘sh sinfxonalarni turli o‘quv kurslari va to‘garaklarga ijaraga berib, mavjud imkoniyatdan unumli foydalanayotir. Savol tug‘iladi: bu yondashuvning maktab o‘quvchilariga foydasi nimalarda ko‘zga tashlanmoqda?

Bu, avvalo, o‘quvchining maktabdan uzoqlashmagan holda qo‘shimcha bilim olishiga, o‘zlashtirolmayotgan fanlarini o‘zlashtirishiga yordam beradi. Yo‘l, transport kabilar bilan bog‘liq sarf-xarajatlarni kamaytiradi. Qolaversa, maktab o‘qituvchilari maktabning o‘zida darsdan so‘ng qo‘shimcha ravishda o‘quvchilarga kurs o‘tishiga imkon tug‘diradi. Bu esa pedagogga qulaylik yaratadi.

O‘tgan yili amakim o‘g‘lining 3 ta fandan repetitorga borayotgani, bu esa oilada moddiy qiyinchilik tug‘dirayotganidan nolib qoldi.

Aytishicha, jiyanim shungacha 3-4 ta o‘quv markaziga qatnagan, biroq pedagoglar berayotgan bilim uni qoniqtirmagan. Natijada puli ham, vaqti ham isrof bo‘lgan. So‘ng o‘ziga ma’qul kursni topib, o‘sha yerda shug‘ullanishni boshlagan.

Amakimdan o‘g‘lining repetitori uchun oyiga qancha sarflayotgani bilan qiziqdim. “Har bir fan uchun oyiga 500 ming so‘mdan to‘lov qilaman, yeb-ichishi, yo‘lkira bor. Buning uchun ham million so‘m nari-berisida xarajat qilaman”, dedi. Amakim farzandining repetitoriga berayotganidan buyon ro‘zg‘origa pul orttirolmayotganidan nolidi, biroq kun kelib, bu mablag‘ o‘zini oqlashidan umidvor.

Bir bolaning repetitori uchun oyiga sarflanayotgan o‘rtacha 2,5 million so‘m bir yilda 30 million xarajat, degani. Agar farzandi shuncha vaqtni, sarflangan mablag‘ni oqlab, birinchi urinishda o‘qishga kirsa, nur ustiga nur. Ammo aksi bo‘lsa-chi?!

Amakim ishi tayin bo‘lgani tufayli farzandi qo‘shimcha kurslarga qatnashi uchun pul topib berib turibdi. Lekin moddiy imkoniyati pastroq oilalarning farzandlari nima qiladi?

Yuqoridagi kabi muammolarning oldini olish uchun maktablarda tajriba tariqasida yo‘lga qo‘yilayotgan yangicha usul ancha qo‘l kelmoqda. Bu tajriba orqali oddiy oilalar farzandlari ham kurslarda bepul o‘qitiladi. Demak, ham ota-onalarga ko‘mak, ham o‘quvchilarning vaqti tejaladi.

To‘g‘ri yo‘lning samarasi

Ushbu tajriba respublikamizdagi bir nechta maktablarda joriy qilinib, o‘z samarasini bera boshladi. Biz poytaxtimizning Yunusobod tumanida shu tajribani yo‘lga qo‘ygan maktablar faoliyatini o‘rgandik.

— O‘quvchilarga qulaylik yaratish va maktabdan uzoqlashmagan holda bilimlarini mustahkamlashi uchun 2022-yilda tumandagi “Registon” o‘quv markazi bilan hamkorlikda darsdan so‘ng bo‘sh sinfxonalarimizni kurs va to‘garaklar uchun ijaraga berishni yo‘lga qo‘ydik, — deydi tumandagi 271-maktab direktori Latofat Qodirova. — Natijada o‘quvchilarimizning fanlarni o‘zlashtirish darajasi ancha oshdi. Ushbu tajriba joriy etilmasdan avval bitiruvchilarimizning bor-yo‘g‘i 10-15 foizi OTMlarga o‘qishga kirgan bo‘lsa, tajriba amaliyotga tatbiq etilgach, yildan yilga ko‘rsatkichimiz oshib, 70-80 foizni tashkil etyapti. Shuningdek, ushbu tajriba orqali maktabimizda o‘quvchilarning chet tilini bilish darajasi ham yuksaldi.

Tumandagi 44 ta maktabni o‘tgan yili 4400 o‘quvchi bitirgan bo‘lib, ming nafarga yaqini IELTSdan yuqori ball olgan. Ulardan 3,5 mingtasi yoki 78 foizi oliygohlarga kirgan. Bunday natija sabablaridan biri maktablarning sinfxonalarini shartnoma asosida xususiy o‘quv markazlariga darsdan keyin foydalanish uchun berilganida.

274-maktab direktori Shahnoza Rasulovaning ta’kidlashicha, maktabda faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilarga bu tajriba qo‘l kelyapti. O‘quv kurslarida biologiya, kimyo, matematika, tarix, ingliz tili fanlaridan maktab pedagoglari qo‘shimcha ravishda shug‘ullanadi. 4-5 yil ilgari bitiruvchilarning oliy ta’lim bilan qamrovi past bo‘lgan. Ushbu tajriba amaliyotda qo‘llana boshlangach, ko‘rsatkich sezilarli ko‘tarildi. Masalan, o‘tgan o‘quv yilida 134 bitiruvchidan 109 nafari talaba bo‘ldi.

Joriy yil 3-aprel kuni davlatimiz rahbarining Yunusobod tumaniga tashrifida ham aynan shu mavzu ko‘tarilib, darsdan so‘ng bo‘sh sinfxonalarni shartnoma asosida xususiy o‘quv markazlariga foydalanishga berish va ushbu tajribani butun respublika bo‘ylab yoyish kerakligi ta’kidlandi.

Jadid bobomiz Abdurauf Fitrat “Najot yo‘li”da bunday deydi: “Garchi har bir inson beshikdan to qabrgacha tarbiya olish qobiliyatiga ega bo‘lsa-da, lekin uni bolalikdan tarbiyalash ta’sirliroq va juda muhimdir. Shunda har bir madaniy toifa go‘daklar tarbiyasi xususida jiddiy bosh qotirib, sarfi himmat qiladilar”. Demak, yoshlarning ilm olishiga imkoniyat yaratib berilishi lozim. Zamon o‘zgaryapti, hayotimizga yangidan yangi texnologiyalar kirib kelyapti. Ana shu o‘zgarishlarga hamohang ta’lim tizimimizni yanada isloh qilib boraverishimiz kerak.

Mansurbek JABBOROV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Botir Zokirovning Navoiy asarlarini o‘qib-o‘rganishi, Majnun obraziga mehr-muhabbat qo‘yishi, keyinchalik konservatoriyadan olgan bilimi, ilk qo‘shig‘ining yaratilishi, birinchi marta sahnaga chiqish jarayonida ham madaniyat va ziyolilikning yorqin belgilari bor edi. U Majnun misol yashadi, Majnun bo‘lib kuyladi.

YANGI O‘ZBEKISTON
2024-yil 25-aprel, 79-son
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Yulduzlar mangu yonadi

San’at osmonidagi boqiy afsona

(Esse)

Ashurali JO‘RAYEV,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist

Milliy estrada san’atimiz asoschisi, mashhur san’atkor Botir Zokirov nomi yillar o‘tgan sari yana ham qadrli, yuraklarimizga yaqin, qadrdon hamda aziz bo‘lib borayotir. Zamonlar, davrlar, avlodlar o‘zgardi, lekin uning qo‘shiqlari hamon barhayot, hamon yashab kelayotir.
Prezidentimizning 2020-yil 2-dekabrda “O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov tavalludining 85 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Agar turli sabablarga ko‘ra uning hech bir yubiley sanasi nishonlanmaganini hisobga olsak, ushbu qaror tufayli haqiqat jamoli namoyon bo‘ldi. Bu madaniy va ma’rifiy hayotimizda ulkan voqeaga aylandi.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 26-avgustdagi farmoniga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 30-yilligi munosabati bilan bir guruh marhum san’atkorlar, ijodkorlar qatorida Botir Zokirovga ham “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni berildi. Bundan tashqari, Prezidentimizning 2021-yil 16-oktyabrdagi qarori bilan O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzurida Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti tashkil qilindi. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-yanvardagi tegishli qarori bilan Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada mukofoti ta’sis etildi.

Milliy estrada san’atimizning yorqin yulduzi, o‘ziga xos ijro uslubi, noyob iste’dodi bilan o‘zbek va O‘zbekiston nomini dunyoning ko‘p mamlakatlarida yuksaklikka ko‘targan betakror xonandaning 85 yillik to‘yi katta tantanalar va yuksak ehtirom bilan nishonlandi.

...Botir Zokirov maktabda o‘qib yurgan kezlaridan boshlab, to konservatoriya ostonasiga qadam qo‘yguniga qadar hamisha a’lo o‘qishga intilgan, ko‘z o‘ngida sodir bo‘layotgan voqealardan teranlik axtargan, o‘qigan kitoblaridan ilm va ziyo izlagan. Uning yurish-turishi, insoniy muomalasida ham haqiqiy ziyoliga xos belgilar mujassam edi. Ziyolilik, avvalo, madaniyatdan boshlanishi, har bir inson madaniyatning oddiy qoidalarini, an’analarini bilishi lozimligini bolaligidan teran anglay boshlagan. Bunday tarbiyani, birinchi galda, otasi va ustozi, O‘zbekiston xalq artisti Karim Zokirovdan olgan.

Otasi oddiy, kamtar, benihoya xokisor inson va iste’dodli san’atkor edi. U hech qachon otasining darg‘azab bo‘lganini, birovni g‘iybat qilib, yomonlab gapirganini yo birov bilan gap talashib qolganini ko‘rmagan ham, eshitmagan ham. Ana shunday samimiy va dilbar inson milliy operamizning nomdor va mashhur ijrochisi edi.

Botir Zokirovning bolaligi ko‘pgina jihatlari va qirralari bilan ba’zi ulug‘ san’atkorlarning bolaligiga o‘xshab ketadi. Uning “tarjimayi holi”ga bolalik va o‘smirlik davrini shunchaki qayd etib bo‘lmaydi. U, ayniqsa, san’atga, bilim olishga o‘ta qiziquvchan, tirishqoq, ayni paytda sabr-qanoatli edi. Beg‘ubor yosh Botir bilmagan narsalarini, albatta, so‘rab-surishtirib, o‘qib-o‘rganishga intilgan. Doimo kerakli mashg‘ulot bilan band bo‘lar — rasm chizar, qo‘shiq o‘rganar, goh she’r yodlardi. Qo‘liga yangi kitob tushib qolsa, o‘qib tugatmaguncha qo‘ymasdi. Kechalari uxlamay kitob o‘qib chiqqani uchun ko‘pincha ko‘zlari qizarib yurardi. Unga nafaqat bolalar, balki kattalar ham havas qilardi. Bolaligidanoq ilmga tashnalik, san’at dunyosiga bo‘lgan muhabbat zamirida ulkan bir ziyoli inson, san’at fidoyisi voyaga yetayotganidan mujda bor edi.

U buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy haqida dastlab otasidan eshitgan. Qolganlarini maktab darsliklaridan o‘qib bildi. Qo‘lida doim Navoiyning biror-bir asarini olib yurgani uchun ham uni hatto “Alisher” deb atashardi. Ayrim



maktab hujjatlarida ham Alisher Zokirov deb yozilgan holatlar bo‘lgan. Unga Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni juda yoqib qolgani sabab ayrim joylarini yoddan o‘qib berardi. Ayniqsa, Majnun obrazi uning qalbidan, vujudidan mustahkam o‘rin olgani bois, o‘n to‘rt yoshida “Majnun” deb atalgan ajoyib kartina yaratdi. Lekin uni uzoq chizdi, ayniqsa, ranglar ustida tinmay ishladi. Tasavvuridagi Majnun qiyofasini suratda aks ettirishga urindi.

Qalamda chizilgan manzara quyidagicha edi: zilol suvli hovuzchaga ko‘m-ko‘k buloq oqib kelib qo‘shilyapti. Hovuzcha bo‘yida g‘amgin xayollarga cho‘mgan, sochlari to‘zg‘igan, kiyim-boshi bir ahvolda, ko‘ksi ochiq, parishon Majnun o‘tiribdi. Yonida chiroyli, munchoqday-munchoqday ko‘zlari javdirab jayron yotibdi. Majnun o‘ng qo‘li bilan jayronning boshini silayapti. Tomirlari bo‘rtib turgan chap qo‘li iyagida. Tizzalari ostida paylari tarang tortilgan kamon. Majnunning qarshisida boshini oyoqlari ustiga qo‘yganicha arslon uzala tushib yotibdi. U ham go‘yo Majnunning ahvolini ko‘rib, og‘ir g‘am-g‘ussaga botgandek. Kartinaning orqa ko‘rinishi sariq rangda. Majnunning parishon va siniq chehrasi, ishq olovi bilan yongan hasratli ko‘zlari kishi yuragini ezib yuboradi...

Bu ajoyib kartinani Botir Zokirovning dastlabki “Avtoportret”i deyish mumkin. Garchi uning bu ilk asari hech bir ko‘rgazmada namoyish etilmagan bo‘lsa-da, u har qanday iste’dodli rassomning asaridan aslo qolishmasdi.

Aytish mumkinki, Botir Zokirovning Navoiy asarlarini o‘qib-o‘rganishi, Majnun obraziga mehr-muhabbat qo‘yishi, keyinchalik konservatoriyadan olgan bilimi, ilk qo‘shig‘ining yaratilishi, birinchi marta sahnaga chiqish jarayonida ham madaniyat va ziyolilikning yorqin belgilari bor edi. U Majnun misol yashadi, Majnun bo‘lib kuyladi.

Misol uchun, bir inson shoir yoki yozuvchi, rejissyor yo aktyor, hofiz yo olim, o‘qituvchi yo shifokor bo‘lishi mumkin, lekin ziyoli bo‘lishi osonmas. Buning o‘ziga xos mashaqqatlari, o‘lchovlari va mezonlari bor. Haqiqiy — tom ma’noda ziyoli bo‘lish hatto mashhur ijodkorlarga ham nasib etavermaydi. Kashfiyotlar yaratgan barcha akademikni ham chin ziyoli safiga qo‘shib bo‘lmaydi. Ziyoli bo‘lish tug‘ma fazilat. Botir Zokirov ham millatimizning ana shunday tug‘ma ziyolilaridan edi. Bugungi estrada qo‘shiqchilik san’ati rivojida nimadir yetishmaydi, degan savolga Botir Zokirovdek zukko va bilimdon ziyoli, madaniyatli qo‘shiqchi yetishmaydi, degan bo‘lardik. Pul sanash va hashamatli imorat qurishdan boshqasiga yaramaydigan ko‘pchilik xonandalarimiz saviya, bilim va dunyoqarashni ozgina o‘zgartirish haqida o‘ylasa, yomon va siyqa hirgoyilar (qo‘shiq deyishga ham til bormaydi) biroz kamayarmidi?

O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov Botir Zokirovni shunday xotirlagan edi:

— Botir Zokirov katta talant sohibi, yuksak ehtirom farzandi. XX asrning o‘ta madaniyatli va ziyoli kishisi edi. Bu ulug‘ san’atkor hamisha halol, imonli, haqiqatgo‘y bo‘lgan, har qanday sharoit va vaziyatda o‘z tanlagan yo‘liga, san’at hamda yuksak e’tiqodiga sodiq qolgan. Uning hayot va ijod yo‘li hamisha ibratli, san’ati umrboqiydir.

Botir akaning obro‘-e’tibori, shuhrati juda baland, tirik afsona bo‘lgan. Lekin o‘zi nihoyatda kamtarin va xokisor edi. Afsuski, o‘sha qattol zamonning ko‘p azob-uqubatlarini chekdi, ko‘p ta’na-dashnomlarini eshitdi. San’atdan yiroq kimsalar uning yo‘liga katta g‘ov bo‘ldi, kamsitdi. Lekin bu qiyinchiliklarni, to‘siqlarni, zarbalarni Botir Zokirov katta iroda, tinimsiz ijod, yangi qo‘shiqlar bilan yengib o‘tdi. Qo‘shiq san’ati osmonida chinakam yulduz bo‘lib porladi. O‘zidan ilohiy bir san’at qoldirib ketdi. U hamisha mashhur san’atkorlarning oldingi safida edi. Bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi. U estrada qo‘shiqchilik san’atida topgan o‘rnini hech kimga bermay, yorqin yulduz bo‘lib o‘tdi...

Jahonning mashhur adibi Chingiz Aytmatov ham Botir Zokirovga shunday yuksak baho bergan. 1978-yili san’atkor “Yalla” ansambli bilan Bishkekka gastrolga borganida, ularning konsertiga Chingiz Aytmatov ham kirgan va tadbirdan so‘ng Botir Zokirovni Cho‘lponotadagi dala hovlisida mehmon qilib, uzoq suhbatlashgan. Aytmatov unga sog‘lig‘ini asrash kerakligini qayta-qayta tayinlagan. Shuningdek, Botir aka mashhur shoirlar Nozim Hikmat, Rasul Hamzatov bilan ham ko‘p marta uchrashib, ijodiy muloqotlarda bo‘lgan.

Bu ulug‘ zotlarning aksariyati Botir Zokirovning hayrat to‘la qo‘shiqlarini haqiqiy mo‘jiza deb baholagan. Aslida, qo‘shiqchilik san’atida mo‘jiza yaratish faqat katta va ulug‘ san’atkorlarga nasib etgan. Uning dilbar qo‘shiqlarida, nola va avjlarida yurak nola qilgan, yurak ijro etgan, yurak kuylagan. U qaysi tilda qo‘shiq aytmasin, yuragi hamisha buloqday qaynab, jo‘shib turgan. Ovozidagi shira to‘la avjlar yurak haroratidan, nolalaridan kuch olgan.

U eng og‘ir damlarda ham, quvonch va baxtli lahzalarda ham qalbiga suyandi. Har safar jarrohlik stoliga yotganida yuragidan madad so‘radi, Allohga iltijolar qilib, sahnaga qaytishni o‘tindi.

Alloh unga hamisha madadkor bo‘ldi, qo‘llab-quvvatladi. Botir Zokirov tilidan ham, dilidan ham Alloh so‘zini qo‘ymas edi. Qachon qo‘ng‘iroq qilib yoki ko‘rganda hol-ahvol so‘rashingiz bilan, albatta, “Allohga shukr”, derdi...

Botir Zokirov tasviriy san’atni sevar, ko‘p o‘qir va chizar, adabiyotning chinakam muxlisi edi. Shu bois, taniqli ijodkorlar Abdulla Oripov, Shukur Xolmirzayev, O‘lmas Umarbekov, Turob To‘la, Uchqun Nazarov, rassom Ro‘zi Choriyev, aktyor Turg‘un Azizov bilan yaqin do‘st edi. Ular bilan tez-tez ijodiy muloqotda bo‘lib, bir-birlariga yangi asarlaridan o‘qib berar, bahs-munozara qilardi. Ayniqsa, Botir Zokirov dilkash do‘sti, ochiqko‘ngil inson, betakror rassom Ro‘zi Choriyevning ustaxonasida bo‘lishni, u bilan suhbatlashishni, yangi chizgan kartinalarini tomosha qilishni yaxshi ko‘rardi.

Bu darveshsifat inson bilan suhbatlashish maroqli edi. Ro‘zi akaning beg‘ubor hayajonlari, jilov nimaligini bilmagan go‘zal his-tuyg‘ulari kartinalaridagi ranglarda o‘z aksini topgandi. U ham Botir Zokirov ijodini qadrlar, yangi suratlar chizayotganida uning dardli va dilbar qo‘shiqlarini qayta-qayta tinglar edi. Bu ikki mashhur ijodkorning bir-birlari ijodidan zavqlanishi, ikki ziyoli shaxsning bir-biriga bo‘lgan yuksak hurmati va ehtiromi ifodasi bo‘lgan...

Botir Zokirov har bir yangi qo‘shig‘i ustida uzoq ishlardi. Qo‘shiqning so‘zi, musiqasi yuragini jizillatmaguncha kuylamasdi. U yangi qo‘shiqni kamida yetti-sakkiz variantdan so‘ng qiyomiga yetkazardi. Bu uning qo‘shiq yaratish yo‘lidagi zahmati, repertuarini umrboqiy qo‘shiqlar bilan boyitish madaniyati edi. Taniqli kompozitor Ikrom Akbarov bilan ijodiy hamkorlik Botir Zokirovning ijrochilik san’atida yangi va nurli sahifalar ochdi. Bu haqda O‘zbekiston xalq artisti Ikrom Akbarov shunday xotirlaydi:

— Botir bilan ishlash ham maroqli, ham mashaqqatli edi. U har bir yangi yaratilajak qo‘shiq ustida xuddi dehqon yerga ter to‘kib ishlagandek, juda qattiq mehnat qilardi. Tanlagan she’rining so‘zlari yoqmasa, qaytadan yozardi. Keraksiz, kuyga tushmaydigan misralarni, so‘zlarni olib tashlardi. Ayrim qo‘shiqlarni o‘n variantda ishlagan paytlarimiz bo‘lgan. Masalan, ruscha “Oshiq bulbul” qo‘shig‘ini o‘n sakkiz variantdan so‘ng kuylagan. Umuman, u o‘ziga yoqmagan, yuragini jizillatmagan qo‘shiqni aslo aytmasdi. Agar qo‘shiq yomon chiqsa, “hoshim” bo‘lib qolibdi-ku, Ikrom aka”, derdi kulib. Ikkinchi operatsiyaga tayyorgarlik ko‘rib yurgan kezlarda ham nuqul “ishlaylik”, derdi. Ba’zan shanba-yakshanba kunlari shifokorlardan ruxsat so‘rab, uyimizga olib kelardik. “Ey sarbon” qo‘shig‘i ana shu davrda yaratildi. Uzoq ishladik. Qo‘shiq sobiq ittifoq radio orkestrida yozib olindi. Qo‘shiqni yozib olish jarayonida ovoz rejissyori Volodya Babushkin boshini changallab yig‘lagan va chidolmay xonadan chiqib ketgan.

Botir ko‘p qirrali ijod sohibi edi, faqat u musiqa yozmadi. Aslida, yozsa bo‘lardi, iste’dodi yetardi. Ba’zi nomdor kompozitorlardan yaxshi yozardi. U musiqani, kuyni muqaddas deb bilgani uchun ham bunga qo‘l urmadi. U musiqani, kuy va qo‘shiqni ilohiy mo‘jiza deb e’zozlar va bunga xiyonat qilganlarni kechirmasdi. U musiqa, tasviriy san’atni chuqur biladigan, teran anglaydigan madaniyatli va ziyoli san’atkor edi...

Taniqli kompozitor, O‘zbekiston xalq artisti Manas Leviyev bir suhbatda shunday degan edi:

— Bu ulug‘ san’atkorga mehrim hamisha baland bo‘lgan. U o‘zbek estrada qo‘shiqchilik san’atining poydevorini qo‘yganlardan. Va doimo estradaning cho‘qqisida yurgan baland hofiz.

U betakror ovoz sohibi edi. O‘zbek qo‘shiqlaridan tashqari arab, eron, afg‘on, rus, farang, hind qo‘shiqlarini ham rosa maromiga yetkazib kuylagani bois, dunyoni lol qoldirdi. Arab, eron va hind san’atkorlari uning ijrosini yuksak baholab, “Botir bizning ham qo‘shiqchimiz”, deb olqishlaganiga ko‘p bora guvoh bo‘lganman. Bu unga berilgan katta baho.

Botir Zokirov “Mahallada duv-duv gap” filmidagi bir qator qo‘shiqlarni qoyil qilib ijro etgan. “Maftuningman” filmidagi “Sartarosh” qo‘shig‘ini ham birinchi bo‘lib kuylagan.

Botir og‘ir kasal bo‘lishiga qaramay, umrining oxirigacha jasorat va matonat bilan qo‘shiq kuyladi. O‘zbek estrada san’ati Botir Zokirov yo‘lidan borishi kerak. Bo‘lmasa, yutqazadi. U noyob iste’dod sohibi, betakror qo‘shiqchi. Xudo bergan unga...

Haqiqatan, Botir Zokirov serqirra ijodkor bo‘lgan. U o‘ziga xos rassom, ajoyib hikoyalar muallifi, aktyor va tarjimon edi. Shuningdek, “Sug‘d elining qoploni” opera librettosini yozgan. Asarni o‘zbek tiliga mashhur adib Asqad Muxtor tarjima qilgan, musiqani Ikrom Akbarov yaratgan. U qaysi soha yoki janrga qo‘l urmasin, barchasida yorqin iz qoldirgan. Lekin Botir Zokirov nomini qo‘shiq san’ati olamga yoydi. “Ra’no”, “Arab tangosi”, “Kel, yor”, “Qaydasan, azizim”, “Majnun monologi” singari ko‘plab qo‘shiqlari milliy estrada san’atimizning bebaho durdonalariga aylandi.

Siz jozibador qo‘shiq kuylayotgan Botir Zokirovning yoniq, teran ko‘zlarini ko‘rganmisiz? Tafakkur balqib turgan bu dono ko‘zlardan hayratga tushganmisiz? Kuy va qo‘shiq yulduzlarday porlab turgan bu sehrgar ko‘zlarni unutib bo‘larmikan?!

Kechalar yulduz sanab,
Yulduz ko‘zing, deb yonaman...

Ha, Botir Zokirov kuylayotganda uning quvonch va iztirob to‘la ko‘zlari ham qo‘shiq aytardi. Bu ko‘zlarda qo‘shiqning betakror suvratlarini ko‘rish mumkin edi. Nolalar faqat ovoz orqali emas, balki ko‘zlardagi teran va o‘tli nurlar bilan muxlislar qalbiga kirib borardi.

Uni mashhur qilgan qo‘shiqlardan biri — “Ra’no”ni eshitib to‘ymaysiz:

Hayotim to‘la ma’no, Ra’no,
So‘nmasin yoshlik o‘ti...
Baxtingdan baxtim paydo, Ra’no.
Barnolar ichra barno, Ra’no...
Oshiqqa dildormisan,
Hamma gullardan a’lo, Ra’no.

Yana bir hayajonli holat: Botir Zokirov o‘zi mahorat bilan chizgan bir qancha “Avtoportret”larida ko‘zlarini tasvirlashda yorqin va mahzun ranglardan foydalangan. Uning ko‘z qorachiqlarida o‘tkir va hayotga tashna nur porlab turardi. Bu qo‘shiqqa, ko‘proq kuylashga bo‘lgan mehr va ishtiyoq, hayotga tashnalik nuri edi...

Buyuk san’atkorning betakror va jozibador qo‘shiqlari avj pardalarga chiqqanida, uning ko‘zlari osmonida chaqmoq paydo bo‘lardi. Bu o‘tli chaqmoqda barhayotlik, abadiylik ohanglari va yuraklarni hamisha titroqqa soladigan nolalar mujassam...

Aslida, Botir Zokirovning maftunkor va go‘zal qo‘shiqlari siri nimada? Bu qo‘shiqlar millionlab yuraklarni qanday zabt etib, qanday larzaga solgan?

Nazarimda, bu sehrli san’at siri, yuraklarni qayta-qayta zabt etgan jozibasi, dunyoviy maftunkorligi, qo‘yingki, Botir Zokirov fenomeni uning bebaho, sehrli va shirador OVOZIDA edi.

U dunyo sahnalarini ana shu mardona ovoz bilan zabt etdi. O‘ktam ovozi, yuksak ijrosi bilan yuraklarni yanada betakror hayratlarga to‘ldirdi. Dilbar qo‘shiqlari bilan maftun etdi.

Bu o‘zbekning buyuk san’atkori Botir Zokirovning inson ruhiyatini yuksaklarga ko‘targuvchi, mangu jaranglaguvchi afsonaviy ovozi edi. Bu ovoz — meniki, sizniki, hammamizniki!..

Bu ovoz — o‘zbekniki, O‘zbekistonniki!..

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 1341.
44595 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060. Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Gulichehra Durdiyeva
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O‘zA yakuni — 20:43 Topshirildi — 23:40